



FARG'ONA VILOYATI, BAG'DOD TUMANI
8-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI

**“ILM-FAN VA TA'LIMDA
INNOVATION YONDASHUVLAR,
MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR”**



**KO'P TARMOQLI 8-SONLI RESPUBLIKA
ILMIY-ONLAYN**

KONFERENSIYASI

IC I WORLD
of JOURNALS



OPEN  ACCESS

Crossref 



FARG'ONA VILOYATI, FARG'ONA SHAHRI
ISTE'DOD KO'CHASI 1-UY, 1-XONADON



+99891-152-93-14



WWW.ACADEMIASCIENCE.ORG



“ACADEMIA SCIENCE”

“UzACADEMIA”

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

ISSN (E) – 2181 – 1334

**“ILM-FAN VA TA’LIMDA INNOVATSION
YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA
YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI 8-SONLI RESPUBLIKA
ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYASI**

MATERIALLARI TO‘PLAMI

30-YANVAR, 2021-YIL

8-QISM

**MATERIALS OF THE 8TH REPUBLICAN SCIENTIFIC-ONLINE
CONFERENCE ON “INNOVATIVE APPROACHES, PROBLEMS,
SUGGESTIONS AND SOLUTIONS IN SCIENCE AND EDUCATION”**

30 JANUARY 2021

PART-8

Google Scholar

**I WORLD of
JOURNALS**



www.academiascience.uz

TAHRIRIYAT

Editor in chief

Eshmatov Gayratjon Marupovich

Executive Secretary

Abdullayev Ravshanjon Inomjon ugli
*He is a history teacher at Baghdad District
8 Secondary School*

Preparing for publishing

Khalikov Mukhriddin Tavakkaljon ugli
Fergana State University

Bosh muharrir

Eshmatov G'ayratjon Ma'rupovich

Mas'ul kotib

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o'g'li
*Bag'dod tumani 8-umumiy o'rta ta'lim
maktabi tarix fani o'qituvchisi*

Nashrga tayyorlovchi

Holiqov Muhriddin Tavakkaljon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti

Tahrir kengashi a'zolari

Sultonali Mannopov

O'zbekiston xalq artisti, professor

Eshmetov Izzat Do'simbatovich

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
texnika fanlari doktori, professor*

Matibaev Taspolat Baltabaevich

Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), Professor, Turon FA Akademik

Abdullayev Muzrobjon Gulamovich

Andijon davlat universiteti, professor

Akramova Shahnoza Abrorovna

*Milliy gvardiya Xarbiy-texnika instituti Psixologiya va pedagogika kafedrasini
mudiri, Pedagogika fanlari doktori, dotsent*

Arslanov Sharafutdin Sultanovich

kimyo fanlari doktori, professor

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Oripov O'rolboy Ahmedovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, PhD

Fazliyeva Zebo Kamarbekovna

O'zbekiston davlat Xoreografiya Akademiyasi, dotsent

Azimov Baxtiyor Ganievich

O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Xusanova Xayriniso Tayirovna

O'zMU, sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

Smaylova Gulmari Yuldashevna

Dotsent

Bazarov Otabek Odilovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Popov Dmitriy Vladimirovich

*Andijon mashinasozlik instituti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)*

Xudoyberdiyev Elyor Xatamovich

*O'zbekiston yoshlar ittifoqi Farg'ona viloyat Kengashi raisining birinchi
o'rinbosari, "Shuhrat" medali sohibi*

Atadjanova Ma'rifatxon Qurbonaliyevna

Furqat tumani XTB boshlang'ich ta'lim metodisti

Toshtemirov Otabek Abidovich

Farg'ona politexnika instituti

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	ОРОЛ ХАЛОКАТИНИНГ ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИ ХАЁТИГА ТАЪСИРИ Худайкулова Ш.М.	6
2.	МУСТАҚИЛ ЎЗБЕКИСТОНДА СУҒОРИШ ИНШООТЛАРИНИ ЗАМОНАВИЙЛАШУВИ ЙЎЛИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР Шомуротов Шарофиддин Шукржон ўғли	9
3.	ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ТОЛЕРАНТЛИК МАДАНИЯТИНИНГ РОЛИ Азимов Адхамжон Солижонович	13
4.	СССРНИНГ МЕСХЕТИ ТУРК ХАЛҚИГА НИСБАТАН ОЛИБ БОРГАН ҚАТОҒОНЧИЛИК СИЁСАТИ: САБАБЛАРИ ВА ОҚИБАТЛАР Бозоров Отабек Нуралиев Зухриддинбек	19
5.	ЮКСАК БИЛИМЛАР САРИ Аҳмедова Мактубахон Соҳибжоновна	23
6.	DIPLOMATIYANING INTERNET DAVRIGA MOSLASHUVI Hamrakulova Ravshanoy Abdulaxatovna	26
7.	YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI Egamova Maqsudaxon	29
8.	IMKONIYATLAR SARI QADAM Ernazarova Dilnoza Ibragimovna To'rayeva Lobar Ikrom qizi	31
9.	FALSAFA BU TARAQQIYOTNING TAFAKKUR MADANIYATIDIR O'.B.Ochilov	34
10.	KORRUPSIYA ILDIZLARINI YO'Q QILAMIZ! Musayev Ravshan Mansurovich Ibragimov Alisher Bazarboyevich	39
11.	YANGI YILDA YANGI MARRALAR Jumanova Dildar Saparboyevna Sultonova Dilfuza Yusupovna	42
12.	GLOBALLASHUV JARAYONIDAGI AXBOROT TAHDIDLARINING YOSHLAR DUNYOQARASHIGA TA'SIRI Yusupova Gulmera	44
13.	ОИЛАДА ЭКОЛОГИК МУАММОЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ТАРБИЯСИ Бахриддинов Нуриддин Садриддинович Игамбердиева Дилфуза Алимовна	47
14.	ЎҚИТИШДА ҚАДРИЯТЛАР УСТУВОРЛИГИНИНГ МОҲИЯТИ Дониёров Тоғаймурод Асадович Донияров Ботир Артиқович	52
15.	YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYAT VA ONGNI SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK TARBIYASINING O'RNI Turg'anbayeva Indira	55
16.	МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ИЖОДИЙ ФАОЛЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ФИКРЛАШ ВА ИДРОК ЭТИШНИНГ ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИГИ	58

	Аллабердиева К.Х.	
17.	ТУРИЗИМНИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ СТРАТЕГИК ТАРМОҒИГА АЙЛАНТИРИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ Тўхтаев Сардор Илхом ўғли	62
18.	OILAVIY MULOQOTDA MUROJAAT SHAKLLARINING SOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATI Г.Нурматова	65
19.	ГУМОН ҚИЛИНУВЧИ ВА АЙБЛАНУВЧИ АЁЛЛАР ИШТИРОКИДА АЙРИМ ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ХУСУСИЯТЛАРИ Муродов Исроилжон Хуршиджон ўғли	68
20.	TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA FANLARARO BOG'LANISH Rahimova Husnida	73

**ОРОЛ ХАЛОКАТИНИНГ ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИ
ХАЁТИГА ТАЪСИРИ**

Худайкулова Ш.М.

Хоразм вилояти Урганч тумани 13- сон мактаб
тарих фани ўқитувчиси

Собиқ шўролар томонидан пахта яккаҳокимлигини таъминлаш мақсадида янги ерларнинг чексиз ўзлаштирилиши, дарё ва сойларнинг чучук сувларидан судхўрларча фойдаланилиш каби бефаросат сиёсати, асрлар оша Марказий Осиё халқлари ҳаётида муҳим ўрин тутган Орол денгизининг қуришига сабабчи бўлди. 1950–йиллар бошидаги Қорақум каналининг қурилиши Хоразм вилояти учун бир қатор муаммоларни туғдирди, яъни янги каналнинг дарёдан сув оладиган жойида тўғон бўлмаганлиги, асосий ўзани чўл ва саҳродан ўтганлиги ошиқча сув сарфи хавфини келтириб чиқариши муқаррар эди. Шундай оғир бир вазиятда олим М.В.Потапов ташаббуси билан воҳадаги Тошсоқа, Қилич-Ниезбой, Қипчоқ каналлари соқаларига яқин жойлардаги дарё сувлари оқимини ўзгартиришга мўлжалланган сунъий тўсиқлар шпорлар бунёд қилиш тадбирлари бошланди. Жуда катта фойда берган мазкур гидроиншоотлар тизими 1952 йилда Давлат мукофотига тавсия этилди¹. Айни пайтда, Ўзбекистонда ҳам қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва биринчи навбатда пахтачилик соҳасини жадаллаштириш мақсадида янги ерларни кенг кўламда ўзлаштиришга киришилди. Натижа Амударёдан сув оладиган йирик каналлар Қорақум, Аму–Занг, Аму–Бухоро, Қарши магистрал, Ўнг ва Сўл қирғоқ Туямўйин, Тошҳовуз қурилди, мавжудлари — Тошсоқа, Пахтаарна, Шовот, Қилич–Ниезбой, Қизкетган ва бошқалар таъмирланди.

Олиб борилган иқтисодий сиёсат ва одамларнинг хўжалик фаолияти сабабли Орол денгизи фожеаси келиб чиқди. Денгиз сатҳи пасайиши шароитда Амударё дельтасидаги ҳаёт кескин ўзгарди. Мавжуд бўлган кўплаб тўқайзорлар, кўллар, яйловлар ғойиб бўла бошлади. Халқни эҳтиёжига жавоб берадиган чорвачилик ва балиқчилик қисқарди, қушлар сони камайди, экологик таҳдиднинг ҳалокатли оқибатлари яққол кўрина бошлади. Орол муаммоси билан Хоразм воҳаситабиатида ҳам кескин ўзгаришлар содир бўлди. Хоразм вилоятининг дарё яқинидаги қисмида 15 минг га тўқайзорлари ва Қорақумга ёндошган жанубий ҳудудларида 26 минг га кўллар бор эди. Бу талофатли йилларда тўқайзорлар ва кўллар майдони 10–15 марта камайиб кетди. Ерларининг шўрланиш даражаси ортди, ҳосилдорлик даражаси кескин

¹ Инженер М.В.Потапов амалий тавсиялари Амударёнинг Хоразм воҳасидан оқиб ўтадиган қисмида 1937–1948 йиллардан оқ кўлланила бошланганди.

камайди. Пахтачиликда илғор ҳисобланган Хоразм вилояти атиги 30 ц. ҳосил етиштирадиган бўлиб қолди². Табиатдаги кескин ўзгаришлар меҳнаткашлар саъй-ҳаракатларининг бесамар кетишига сабаб бўлди. Мамлакатдаги йирик дарёлардан тўхтовсиз олинаётган оби ҳаёт, (1974 йилдан Сирдарё ва 1985 йилдан Амударё) Оролга етиб бормай қўйди³. 1983 йилга келиб эса Орол балиқчилик кони сифатида ўз аҳамиятини йўқотди. Илгари мавж уриб турган Орол денгизи тубида қум-туз саҳроси пайдо бўлди. 1985 йилда сув тушмаганлиги сабабли Орол денгизининг сув билан қопланган қисми 65 минг куб.км дан 9 минг куб.км га тушиб қолди. Денгиз ўз қирғоқларидан 100-120 км масофага узоқлашди натижада сув сатҳи 32,5 минг кв. км, сув баландлиги 32,5 м., ва ҳажми 400 куб. километрга тушиб қолди⁴.

Денгиз сувининг шўрланиш даражаси 10 дан 120 гекалитрга, шарқий қисмида — 280 гекалитргача ошди. Денгиз ўрнида 30–40 км масофада жойлашган катта-кичик сув ҳавзалари қолди, холос. Саҳрога айланган денгиз тубида вужудга келган ва майдони 5 млн гектарни ташкил қилган саҳродан атмосферага кўтарилаётган қум ва туз заррачаларини минглаб километр масофага учуриб кета бошлади. Денгиз яқинида жойлашган ҳудуд обу-ҳавоси, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ва миллионлаган инсонларнинг ҳаёти хавф остида қолди⁵. Туямўйин сув омбори қурилиши нафақат қишлоқ хўжалиги учун зарур чучук сув муаммосини ҳал қилишга имкон берди, балки Оролнинг қуриши билан боғлиқ экологик ноҳуш шароитда аҳолини ичимлик суви билан таъминлаш масаласини ҳал қилиш учун ҳам шароит яратди. Маълумки, 60–йиллар ўрталаригача аҳоли қудуқ ва ариқлар сувидан истеъмол қилиб келарди. Эндиликда Орол тубидан кўтарилаётган тузларнинг далалар ва сув ҳавзаларини қоплаши, ер ости зах сувларининг кўтарилиши оқибатида қудуқлар ва ариқлар сувлари шўрланди. Хавф-хатар кучайиб бораётган бир шароитда Хоразм вилоятининг аҳоли зич истиқомат қиладиган шаҳар ва қишлоқларида ер ости сувларини ичимлик ва деҳқончилик учун чиқариб олиш мақсадида артезиан қудуқлари ўрнатила бошланди. Аксарият аҳоли хонадонларида эса босим ёрдамида сув чиқарадиган шахсий қудуқчалар қазилиши ҳам сув таъминотини биров яхшилашга имкон берди. Аммо кўпгина жойлардаги ер ости сувларининг юқори даражада шўрланганлиги боис санитария-гигиена талабларига мос

²Нодирматов С. Атроф-муҳит муҳофазаси даврининг долзарб иши // «Хоразм ҳақиқати». — Урганч, 1998, 21 февр.

³1998 ва 2005 йиллар ёзидаги сувнинг сероблиги вақтида Амударё сувлари яна Орол денгизига етиб борди.

⁴Каримов И.А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. — М.: Дрофа, 1997. — С.119;

⁵Савчук Д. Трагедия Арала // "12.uz". — Ташкент, 2008, 22 июня // [WWW: CAWater.info](http://WWW:CAWater.info)

келадиган йирик сув чиқариш иншоотларини қуриш имконияти чекланиб қолмоқда эди.

Сув муаммоси масалаласида геополитик масалалар ҳам кўндаланг бўлиб қолди, яъни Хоразмнинг Қорақалпоғистон Республикаси ва Тошхөвүз вилояти билан муносабатлари кескинлашди. Натижада сув тақсимлаш ишларига жиддий эътибор қаратилди. Нисбатан дарёнинг юқори оқимида жойлашган вилоятдаги мавжуд каналлар ва ариқлар, насослар қўшнилар томонидан доимий назорат остига олинди. Сув кам бўлган айрим йилларда экинларни сақлаб қолиш мақсадида коллектор ва захкаш сувларидан фойдаланишга тўғри келди. Бу борада деҳқонлар бироз ибратли тажрибалар ҳам тўпладилар.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, совет даврида амалга оширилган пахта яккахокимлиги сиёсати натижасида жуда кўплаб муаммоли вазиятлар юзага келди. Мана шундай муаммолардан бири Орол муаммоси бўлиб, бу ҳолатни бартараф этиш учун ҳали бугунги кунгача дунё олимлари ва мутахассислари тадқиқотлар олиб бормоқдалар.

МУСТАҚИЛ ЎЗБЕКИСТОНДА СУҒОРИШ ИНШООТЛАРИНИ ЗАМОНАВИЙЛАШУВИ ЙЎЛИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР

Шомуротов Шарофиддин Шукуржон ўғли
Қўқон Давлат Педагогика институти ўқитувчиси

Аннотация: Ўзбекистон мустақилликка эришганидан сўнг барча соҳаларда бўлгани каби сув хўжалиги тизимида ҳам муҳим ислоҳот ва бир қатор тадбирлар амалга оширилди. Бугунги кунда республика суғориш тизимида сув ресурсларидан оқилона ва тежамли усулда фойдаланишга алоҳида эътибор қаратилиб, соҳадаги модернизация жараёнлари йилдан йилга такомиллаштирилмоқда. Мақолада Ўзбекистонда суғориш иншоотларини замонавийлашуви йўлидаги амалга оширилган ислоҳотлар ёритиб берилади.

Калит сўзлар: сув ресурслари, фармон, мелиорация, инвестицион лойиҳалар, суғориш иншоотлари, сув омбори, дренаж ва коллекторлар, ислоҳот.

Мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши сувдан фойдаланиш билан бевосита боғлиқ ҳолда фаолият юритади. Республика бўйича экин майдонларини суғориш учун йилига ўртача 55 млрд. м³ сув талаб этилади ва бу миқдордаги сув Марказий Осиё давлатларида истеъмол қилинадиган жами сув ресурсларининг деярли ярмига тенг. Айни пайтда республика қишлоқ хўжалигида фойдаланилаётган сувнинг 80 фоизидан ортиғи қўшни давлатлар ҳудудларидан оқиб келиши сув режимининг барқарорлигини ташкил этиш имконини чеклайди. Шу боис сувдан тежабтергаб фойдаланишнинг иқтисодий аҳамияти жуда юқори бўлиб, бунда ирригация ва мелиорация тармоқларининг фойдаланиш учун яроқлилиқ ҳолатини сақлаш талаб этилади. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримов томонидан "...фаолият кўрсатаётган ирригация-мелиорация объектларининг тегишли техник ҳолатини таъминлаш, ихтисослашган сув хўжалиги, қурилиш ва эксплуатация ташкилотларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, уларни замонавий техника билан жиҳозлаш масалаларига алоҳида эътибор қаратиш..."⁶ борасида қўйилган вазифалар сув хўжалиги тизимини ислоҳ қилишда йўналиш бўлиб хизмат қилади. Шу билан бирга сўнгги йилларда сувдан фойдаланиш тизимини такомиллаштириш борасида қатор тадбирлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2003 йил 24 мартдаги "Қишлоқ хўжалигида иқтисодий ислоҳотларни

⁶ Каримов.И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. -46 б.

чуқурлаштиришнинг энг муҳим йўналишлари тўғрисида"ги ПФ-3226 сонли Фармонига асосан фермер хўжаликларини ривожлантириш устувор вазифа сифатида белгиланди ва бу борадаги ислохотларни янада чуқурлаштириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 28 июндаги 290-сонли қарори асосида сув хўжалигида муҳим ўзгаришлар юз бериб, сув ресурсларини маъмурий-худудий бошқариш принциpidан ҳавза бошқаруви принциpigа ўтказилди.

Фермер хўжаликларининг устуворлик асосида ривожланиши оқибатида сувдан фойдаланиш тизими анча мураккаблашди. Хусусан, илгари қишлоқ хўжалиги ерлари ширкат хўжаликлари ихтиёрида бўлган ва худудни сув билан таъминлаш ҳам улар зиммасида бўлган. Битта хўжалик худудидagi ички каналлар, гидротехник иншоотлар ва мелиоратив техникалар, молмулклардан фойдаланадиган кўплаб фермер хўжаликлари пайдо бўлганлиги, шунингдек, худудда кўплаб деҳқон хўжаликлари ҳам қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириб сув истеъмолчилари сифатида майдонга чиқиши табиий равишда қуйи бўғинда сувдан фойдаланиш муносабатларини тартибга солувчи субъект фаолияти заруратини кетириб чиқаради.

Маълумки, мамлакатимиз иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда аграр тармоқ салмоқли ўринни эгаллайди. Шунинг учун ҳам республика ҳукумати томонидан ушбу тармоқни ривожлантиришга етарлича эътибор қаратилмоқда. Зеро, аграр тармоқни барқарор ривожлантириш сув хўжалиги тизимининг самарали фаолияти билан бевосита боғлиқдир. Айниқса, тармоқни модернизациялаш учун йўналтирилаётган инвестициялар ушбу соҳанинг истиқболда ривожланиши ҳамда етакчи тармоқ сифатида мамлакат аҳолисининг фаравонлигига хизмат қилишини таъминлашга қаратилган. Шу жиҳатдан агросаноат мажмуасининг ўзагини ташкил қилувчи сув хўжалиги тизимининг мамлакатимиз иқтисодиётидаги муҳим ўрни ва аҳамиятини эътиборга олган ҳолда олиб борилаётган ташкилий-таркибий ва молиявий-иқтисодий ислохотларнинг кейинги босқичида тармоқни техник ва технологик янгилаш, соҳани тубдан модернизация қилиш долзарб масалалардан бирига айланди. Зеро, сув хўжалиги объектларининг ҳозирги техник жиҳатдан ҳолатининг таҳлиллари "... хўжаликлараро ва магистрал каналларнинг 23,5 фоизи, хўжаликлар ичидаги суғориш тармоғининг 17,4 фоизининг таъмир талаблиги, мавжуд 42 та сув олиш гидроузелининг 18 тасини алмаштириш ва гидромеханик ускуналарни модернизация қилишни, 5 тасини қайта қуришни, катта насос станцияларининг 80, ўртача станцияларнинг 50 ва кичик станцияларнинг 30 фоизининг таъмирлашга ва қайта қуришга муҳтожлиги, ички хўжаликлардаги қарийб 19 минг км очиқ дренажларнинг тозалашни талаб

қилиши, ёпиқ дренажларнинг 50 фоиздан ортигини ишламаслиги”⁷ни кўрсатмоқда.

Қайд этилган ҳолатни бартараф этиш, сув хўжалиги тизимининг самарали ишлашини таъминлаш учун катта миқдордаги молиявий маблағлар йўналтирилишини талаб қилади. Бунинг учун ички ва ташқи инвестицияларни жалб этиш вазиятни ҳал этиш имкониятини яратади. Шунинг учун ҳам, Биринчи Президентимиз И.А.Каримов таъкидлаганларидек, “Барчамиз оддий бир ҳақиқатни яхши англаб олишимиз даркор – инвестицияларсиз модернизация ҳам, янгиланиш ҳам бўлмайди”⁸

Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида республикаимиз қишлоқ ва сув хўжалигида олиб борилаётган иқтисодий ислохотларнинг натижасида, хусусан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2003 йил 27 октябрдаги “2004-2006 йилларда фермер хўжаликларини ривожлантириш Концепцияси” фармони ва ҳукумат қарорларига асосан 2004-2006 йиллар давомида зарар кўриб ишлаётган ва истиқболсиз деб ҳисобланган 1020 та ширкат хўжаликлари тугатилиб, улар негизида фермер хўжаликлари ташкил этилиши ҳамда уларга хизмат кўрсатувчи инфратузилмаларни янада ривожлантириш белгиланди. Бу жараён ўз навбатида сув хўжалиги тизимини ҳам ислоҳ қилишни заруратга айлантирди. Шундан келиб чиққан ҳолда сув хўжалигини ислоҳ қилиш жараёни уч йўналишда амалга оширилди. Биринчи йўналиш — қайта ташкил этилган хўжаликларда хўжаликлар ичида сув ресурсларини бошқаришни кучайтириш мақсадида Сув фойдаланувчилар уюшмаларини (ҳозирда сув истеъмолчилари уюшмалари) ташкил этилиши.

Иккинчи йўналиш — моддий ва маънавий эскирган сув хўжалиги объектларини модернизация қилиш. Учинчи йўналиш — СИУлар бошқарувнинг юқори иерархия билан ўзаро муносабатларини мувофиқлаштириш мақсадида республика сув хўжалиги бошқарувида ислохотлар олиб борилди. Бунинг натижасида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 21 июлдаги «Сув ресурсларини бошқаришни ташкил этишни такомиллаштириш тўғрисида»ги қарори билан республикаимизда ирригация тизимларини бошқариш маъмурий-ҳудудий усулидан ҳавза тамойилига ўтказилди. Амалга оширилган ислохотлар сув манбаи билан сувни бевосита истеъмолчилари ўртасидаги ортиқча бўғинларни йўқотиш, сувдан фойдаланишни режалаштириш ва тақсимлашни ҳамда бошқаришни илмий асосда ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, бюджет маблағларидан мақсадли фойдаланишни назорат қилиш имкониятини яратди.

⁷ Сув Ўзбекистон келажаги учун ҳаётий ресурс. – Т.: 42-бет.

⁸ Каримов. И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инкирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2009. -56 б.

Айни пайтда республикаимиз қишлоқ хўжалигида амалга оширилган иқтисодий ислохотларнинг талабларидан келиб чиққан ҳолда сувдан фойдаланишнинг энг қулай бўлишида ҳам қатор янги тизимлар жорий этилди.

Хулоса ўрнида таъкидлаш зарурки, Ўзбекистон мустақилликка эришганидан сўнг мамлакатимиз тарихини ҳолисона ва илмий тарзда тадқиқ этиш масаласига алоҳида эътибор қаратилиб, ўтмиш тарихига муносабат ҳам тубдан ўзгарди. Бир қатор тарихий мавзулар сирасида, тарихан шаклланиб келган ирригация тизими ҳамда суғорма дехкончилик маданияти тарихини назарий-концептуал ёндашув асосида ҳаққоний ўрганишга алоҳида урғу берилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов.И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. -46 б.
2. Сув Ўзбекистон келажаги учун ҳаётий ресурс. – Т.: 42-бет.
3. Каримов.И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. -56 б.
4. Маҳмудов О. Сув ресурсларидан тежамли фойдаланиш ҳаётий зарурият // Ўзбекистон овози, 2013 йил 28 март
5. Бойназаров Д. Мелиорация ва агротехник тадбирлар // Халқ сўзи, 2014 йил 26 февраль
6. www.lex.uz.
7. www.norma.uz

ЖАМИЯТ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ТОЛЕРАНТЛИК МАДАНИЯТИНИНГ РОЛИ

Азимов Адхамжон Солижонович

Қўқон давлат педагогика институти катта ўқитувчиси

Мамлакатимиздаги мустақил ривожланиш шароитида руй бераётган чуқур ижтимоий ўзгаришлар Ўзбекистонликларнинг менталитетида янги миллий давлатчиликни қарор топтириш жараёнларини жадаллаштириб юборди. Нафақат бу, балки, энг асосий демократик тамойиллардан бири бўлмиш толерантлик давлат даражасидагина эмас, шахслар, гуруҳлар даражасида ҳам тобора юзага чиқиб бормокда, толерантлик эса турли этник гуруҳларга мансуб кишиларнинг турмуш тарзига, феъл-атвори, ҳис-туйғулари, фикр-уйлари, ғоялари ва диний қарашларига ҳурмат-эҳтиром билан муносабатда бўлишни билдиради.

Миллатлараро муносабатлардаги янги тизимнинг қарор топиш жараёнларини ўрганишдан кузатилган мақсад аҳолининг барча ижтимоий гуруҳлари, айниқса, ёшлар ўртасида шундай муносабатларнинг ҳолати ҳақида яхлит ва тўлиқ тасаввур олишдан иборат.

“Муболағасиз айтиш мумкинки, - дея таъкидлаган эди Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримов, - бизнинг келажагимиз, мамлакатимизнинг келажаги бизнинг ўрнимизга кимлар келишига, ёки бошқачароқ айтганда, қандай кадрлар тайёрлашимизга боғлиқ[1.4].

Давлатнинг бутун диққат-эътибори мазкур муаммога қаратилганлиги, чунончи ёшларни тарбиялашга янги ёндошувлар белгилаб берилганлиги ва бу ишда, аввало, маънавиятни қарор топтириш ва мустаҳкамлашга урғу берилганлиги ёш авлодга муносабат тубдан ўзгарганлигидан далолат беради. Халқ турмушининг ижтимоий, сиёсий, маънавий, иқтисодий, ахлоқий штиёжлари, демократии жамиятни ривожлантириш истикболлари она шу муносабатларга асос қилиб олинган.

Демократик ислохотларни амалга ошириш, таъсирчан миллий сиёсат юритиш учун ёшлар орасидаги миллатлараро муносабатлар қай йўсинда ўзгараётганлигини синчиклаб ўрганиш методологик жиҳатдан муҳим аҳамиятга эгадир. Аҳолининг сони ва таркибини билдирувчи кўрсаткичлар бундай хулоса чиқариш учун асос бўлади. Масалан, Ўзбекистоннинг йигирма етти миллионли аҳолисидан 60 фоизи 25 ёшга етмаган йигит ва қизлар бўлса, шундан 43 фоизини 16 ёшдаги ўсмирлар ташкил қилди.

Миллий жараёнларнинг моҳиятини тушуниш, ёш авлод тарбиясига оид таъсирчан сиёсатни ишлаб чиқиш, ёшлар орасида миллатлараро

“UzACADEMIA” scientific-methodical journal
www.academiascience.uz

муносабатларни уйғунлаштириш методларини яратиш учун ҳам миллатлараро бағрикенглик муаммоси бениҳоя муҳим аҳамият касб этади.

Ҳозирги дунёда маданий алоқалар кенгайиб бораётганлиги сабабли, турли маданиятлар ўзаро ҳамкорлигининг самарадорлиги муаммоси долзарб вазифа қилиб қўйилмоқда. Ўзаро маданий алоқа ва бу соҳада ҳамжиҳатлик ғоят мураккаб жараён бўлиб, хилма-хил мантикий ва маънавий таркибга эгадир, бу ҳолатни инкор қилиш кўпинча мураккаб муаммоларни келтириб чиқариши мумкин.

Эндиликда инсоният "биз яшаб турган дунё қандай бўлиши керак", "қон тўқилишига, экстремизмга, одамлар ўртасидаги адоватга қандай қилиб бардам бериш керак", деган масала устида тинимсиз бош қотирмоқда. Алоҳида ҳар бир одамни ва умуман жамиятни ўзидан бошқа шахс ва жамиятларни салбий даражада талкин этмаслик ўзгалар фикрига сабр-тоқат билан муносабатда бўлиш - демократик ҳуқуқий жамиятнинг энг асосий

белгиларидан бири эканини тушуниш руҳида қандай қилиб тарбияламоқ керак деган масала ҳам ғоят муҳим аҳамиятга эгадир. Бағрикенглик яъни толерантлик инсоннинг онгли ҳаётида ва жамиятнинг менталитетида янги онг, шу ўрни пайдо қилиб, устивор аҳамият касб этмоқда. Толерантлик тўғрисидаги замонавий концепция яқиндагина пайдо бўлиб, бу тушунчани шакллантиришда ЮНЕСКО кўп куч-қувват сарфлади. Жумладан, 1995 йилда ушбу ташкилот томонидан қабул қилган "Толерантлик тамойиллари декларацияси"да толерантлик фуқаролик жамиятининг қадрияти ва ижтимоий нормаси, дея таърифланди[2. 91-92 б.].

Ҳозир дунёдаги мамлакатларнинг аксарияти кўпмиллатли, кўп маданиятли характерга эга. Таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси ҳам айнан шундай мамлакатлар жумласига кириб, ушбу ҳол фуқаролар ўртасидаги тинчлик-тотувлик ҳамда миллатлараро ҳамжиҳатликни сақлаб қолишга тўсқинлик қилмайди.

Жаҳон тажрибасидан маълумки, давлатнинг барқарорлиги кўп жиҳатдан миллатлараро муносабатлардаги турли муаммоларни ҳал этиш қобилиятига боғлиқдир. Кейинги вақтларда, глобаллашиб бораётган дунёдаги можаролар, шу жумладан миллатлараро низолар кучаяётган бир шароитда, бу муаммо айниқса муҳим ўринга чиқиб борапти. Шу муносабат билан мшмапъчараро татувлик ҳар қандай кўпмиллатли давлат учун ҳал қилувчи омил сифатида аҳамият касб этмоқда.

Одамларнинг дунёқараш, фикрлаш тарзига асосланувчи мураккаб ходиса бўлмиш миллатлараро муносабатларнинг ҳолати ва ривожланиши кўп жиҳатдан мамлакат аҳолисининг бағрикенглик даражасига борлиқдир. Миллатлараро толерантлик унинг устувор йўналишларидан биридир.

Толерантликни ривожлантириш одамлар ўртасида доимий мулоқотни йўлга қўйишни кўзда тутди. Шу сабабли ҳозирги глобаллашиб бораётган дунёда толерантликни оммалаштиришга, кишиларнинг инсонпарварлик тафаккури ва феъл-атворини такомиллаштиришга, ўзгаларга ётсираш билан қараш (ксенофобия)га қаршилик қилиш лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишга интилувчи турли ноҳукумат ташкилотлар, фуқаро гуруҳлари ва айрим ташаббускорлар ҳаракат қила бошладилар.

XX асрнинг иккинчи ярмида толерантлик муаммоси халқаро тус олди, чунки бу муаммонинг ижобий ҳал этилиши халқлар ўртасидаги ва мамлакат ичидаги кўпгина можаролар тугунини ечиб юбориш имконини беради. Чунончи, бир-бирига сабр-тоқат билан қараш, бир-бирининг ўзгача яшаш ҳуқуқини тан олиш, айрим ижтимоий субъектларнинг мутлоқ ҳақиқат тушунчасини тан олиш туурисидаги фикрига қўшилиш соҳасида муайян ҳамжиҳатлик бўлмаса, ўзаро можаролашувчи томонлар ўртасидаги мулоқотда муросага эришиб бўлмайди.

Толерантлик муаммосига катта аҳамият берилаётганини шундан ҳам билса бўладики, жаҳон ҳамжамиятининг бу ҳаётий муаммога эътиборини жалб қилувчи кўпгина халқаро тадбирлар ўтказила бошлади, жумладан, 1995 йилни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти бағрикенгликка бағишлади. Бу тадбирларда толерантликни ривожлантиришга кўмаклашувчи шарт- шароитларни яратиш йўллари изланмоқда, бу муаммони ҳал этишга ҳалақит бераётган омилларни бартараф этишга ҳаракат қилинмоқда. Ҳозирги дунёнинг глобаллашиб бораётганлиги ана шундай омиллардан биридир.

Глобаллашув жараёнининг моҳияти ҳам одамлар, ҳам давлатлар ўртасидаги ўзаро алоқа ва ўзаро боғлиқликнинг ҳаддан ташқари кенгайиб ва мураккаблашиб бораётганлигидан иборатдир. Чунончи дунё миқёсидаги ахборот макони, капиталлар, товарлар ва ишчи кучларининг жаҳон бозори вужудга келмоқда, табиий мўқитга техноген таъсир муаммоси, миллатлараро ва динларара низолар ва ялпи хавфсизлик муаммоси чигаллашиб кетмоқда.

Ҳозирги дунёнинг глобаллашуви жараёни инсониятга дунё хилма-хил ва айни вақтда ягоналигини ҳамиша ёдга солиб турмоқда. Маданиятлар хилма-хил эканлиги сабабли айни бир хил жараёнларга ёндошувлар ҳам турли-тумандир, аммо бу нарса аниқ ижтимоий субъектлар учун ҳам, бутун дунё учун ҳам хавф солиши мумкин.

Глобаллашув жараёнида инсониятнинг ўзаро боғлиқлиги кучайиб, унинг бундан буёнги тақдири учун масъулият англаб олинаётганлиги эса толерантлик маданиятининг шаклланишига шак-шубҳасиз имкон бермоқда.

Иқтисодий ўзаро боғлиқлик ахборотнинг глобаллашуви ва хавфсизлик нуқтаи назаридан ўзаро боғлиқлик ҳозирги дунё глобаллашувининг ўзига хос хусусиятларидир.

Толерантлик — бошқаларнинг фикрига, қарашлари ва ҳаракатларига ғайритабиий тарздаги пассив тобелик эмас; итоаткорона сабр-тоқат қилиш эмас, балки фаол маънавий позициядир; этнослар, ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги ҳамжиҳатлик йўлида, ўзга маданий, миллий, диний ёки ижтимоий муҳит кишилари билан ижобий ўзаро муносабат йўлида бағрикенгликка руҳий тайёрликдир.

Ўзбекистоннинг мустақил ривожланиш тарихи янги юз йиллик билан, дунёда мшталлараро ва динлараро адоват бениҳоя авж олган юз йиллик билан бир пайтга тўғри келди. Бизнинг кўз унгимизда бутун-бутун давлатлар барбод бўлмоқдаки, бунинг асл сабаби мазкур давлатлардаги миллий манфаатларнинг тукнашувидир. Шу сабабли биз Ўзбекистоннинг энг катта ютуғи миллатлараро ҳамжиҳатлилик ва тотувлик тинчлик ва барқарорлик деганимизда, бу гап шунчаки ҳаммага маълум бўлган ҳақиқатгина бўлмай, балки бу ҳозирги нотинч дунёдаги республиканинг катта муваффақиятидир.

Толерантлик умумий ақл-фаросат ва ахлоқий кадриятларнинг гўзал заминида ўсиб етиладиган инсониятнинг абадий идеал ҳолати бўлиб қололмаслиги табиий ҳолдир. Бунда, индивидлар оммаси ёки ақалли кўпчилиги умумий манфаатларга риоя қилиши, бағрикенг бўлиши, умумий фаровонлик ва ҳамжиҳатлик йўлида бирлашиши, фидойиликка чорлаш ва эзгулик кадриятларини тарғиб қилиши муҳим аҳамият касб этади.

Эндиликда толерантлик омили барча халқларнинг тараққий этишига ва цивилизациядан узулиб қолмаслигига ёрдам берадиган маданият турига айланиб улгурди. Бироқ, турли цивилизацияларнинг ривожланиш шарт-шароитлари турлича бўлганлиги туфайли, маданий тараққиёт парадигмасини ўзгартирмай туриб, халқаро муносабатлар тизимида толерантликни сақлаб қолиш имконияти анча шубҳа туғдиради. Бугунги дунё мафкуравий тузилмаси ҳамма учун умумий ҳақиқат сифатида бирон-бир цивилизацияни сақлаб қолишга қаратилган кадриятларни қарор топтиришга интиладиган «универсал» мафкура ёки аксилмафкура билан алмаштириб қўйилмаслиги учун, толерантликка ҳар қандай, яъни, ўзгага нисбатан мурасасозлик сифатида берилган аутентик (аслига мос) шарҳни сақлаб қолиш лозим[3.26.]. Акс ҳолда мурасасизлик мантиқан ўзини оқлаб олади.

Жаҳон ҳамжамияти куч монополиясини нейтраллаш йўллари топа олсагина, толерантликни унинг аутентик шарҳида сақлаб қолиш имкони бўлади. XXI асрда толерантликнинг реал замини сифатида янги мувозанатни топиш лозим. Янги мувозанат шароитидагина алоҳида шахснинг ҳам, халқнинг

хам эркин маънавий шаклланиши ва маданий ривожланишига имкон яратилган бўлади.

Эркин шахс сифатида инсон ҳаёт тамойилини танлаб олади ва шунинг билан ўзининг ички мувозанатига эга бўлади. Ташқи мувозанат эса унга тайёр тарзда тақдим этилади. Ички мувозанатни инсон ўзининг иродасига таянган ҳолда ўзи шакллантиради.

Халқ ҳам қадриятлар шажарасида ўзи биринчи ўринга қўйган тамойилларга асосланади. Гарчи кўпчилик миллатлар шунга даъволик қилсалар-да, абадий қадриятлар ташувчиси деб ҳисоблаш мумкин бўлган миллатнинг ўзи йўқ. Агар халқаро ҳамжамият ҳар хил турдаги этник ва миллий айниятларнинг номувофиқлиги муаммосини ҳал қила олсагина, универсал толерантликка имкон яратилган бўлиши мумкиндек кўринади. Бунинг учун иккита фундаментал шарт бажарилиши лозим: биринчиси инсоният ўзини-ўзи асраб қолишга интиланган оқилона фикрловчи индивидлар мажмуидан иборат бўлиши лозим; иккинчиси, инсониятга ўз ҳаёт тарзини муттасил яхшилаб бориш учун чекланмаган имконият берилган бўлиши лозим[4.11].

Бироқ шуниси маълумки, бу мулоҳазада асл ҳаётий реалликлар эмас, абстракциялар билан иш кўрилмоқда. Ҳақиқатда эса, ҳаётнинг моддий шарт-шароитлари чекланган ва тобора торайиб бормоқда; конкрет индивидлар универсал ақл тамойилларидан келиб чиқмай, одатда анъаналар ва вазиятлар тазйиқи остида шу вазиятдаги ҳолатга қараб фикр юритадилар. Шунинг учун ҳам цивилизацион йўналишларнинг ўзаро мослашуви муаммоси ғоят мураккаб тус олмоқда.

Шу ўринда бошқа бир масала ҳам юзага келади, биз социал ҳақиқат сифатида фақат битта мафкуравий фикрни қабул қилар эканмиз, у ҳолда либерализм асосчиларидан бири Ж.Локк таъриф берган толерантликнинг классик тушунчасини тафтиш қилишга тўғри келади. «Ўз эътиқодларига бегона бўлган барча нарсани, бунга йўл қўйиб берилса, турлича бўлган ва турли томонларга бошлаб кетадиган йўллар пайдо бўлиши мумкин, деб қоралайдиган фанатларнинг фикрига қўшилишга ҳаракат қилиб кўрайлик, деб ёзган эди Ж.Локк – пировард натижада нимага эришамиз? Ҳақиқатан, фақат битта йўл мавжуд. Кишилар қадам қўйган мингларча йўллардан битта ҳақиқийсини танлаб олиш ғоят мушкул. Давлат устидан чекланмаган ҳукмронлик ҳам, қонунлар чиқариш ҳуқуқи ҳам осмонга олиб борадиган ишончлироқ йўлни очиб бера олмайди, бунга фақат оддий инсоннинг эътиқоди қодирдир»[5. 66-90].

Вақти келиб, жаҳон либерал демократия тамойилларининг универсаллашуви ва бундай универсаллашув бошқа бир шароитга мантиқий ва ахлоқий замин яратадики, бунда янги тартибга қаршилик кўрсатаётган барча

«нолиберал» цивилизациялар йўқ бўлиши ёки иқтисодий ва сиёсий жиҳатдан чегараланган резервацияларга чекиниши керак бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Каримов И. А. Ўзбекистан XXI асрга интиломда. —Т.: Ўзбекистан. 2000,4 б.
2. ЮНЕСКО халқаро меъёрий хужжатлари. Конвенциялар, битимлар, протоколлар, тавсияномалар, декларациялар. (Тўплам) “Бағрикенглик тамойиллари декларацияси”.- Тошкент: “Адолат”, 2004. - 91-92 б.
3. Радугин А.А. Толерантность как духовно-нравственное основание реализации принципа свободы совести в современном обществе // Научные ведомости. 2013. № 23 (166). Выпуск 26.
4. Пузиков В.Г., Тимофеев А.Ф. Социокультурная толерантность как важнейший фактор межкультурной коммуникации // Наука о человеке: гуманитарные исследования. 2009. № 11.
5. Локк Дж. Опыт о веротерпимости // Сочинения: В 3 т. Т. 3. —М.: Мысль, 1988. — С. 66-90.

**СССРНИНГ МЕСХЕТИ ТУРК ХАЛҚИГА НИСБАТАН ОЛИБ
БОРГАН ҚАТОҒОНЧИЛИК СИЁСАТИ: САБАБЛАРИ ВА ОҚИБАТЛАР**

Бозоров Отабек

Қўқон ДПИ магистратура бўлими бошлиғи, PhD

Нуралиев Зухриддинбек

Риштон тумани 2 сон касб-хунар мактаби тарих фани ўқитувчиси

XX асрнинг 30-йилларига келиб собиқ Совет иттифоқида шахсга сиғинишнинг кучайиб бориши билан маъмурий буйруқбозлик тизими қарор топди. Маъмурий-буйруқбозлик тизимининг қарор топиши халқлар устидан зўравонликнинг кучайтирилишига ҳам олиб келди. Сталин даврида Совет давлатидаги қатоғончилик сиёсати ўзининг юқори чўққисига чиқди ва изчиллик билан амалга оширилди. Қатоғончилик сиёсати айрим шахсларга, ижтимоий гуруҳларгагина эмас, балки бутун-бутун халқларга нисбатан ҳам қўлланилиши билан характерланар эди. Халқларни қатоғон қилиш сиёсати, яъни депортация⁹ қилиш 1930-1950 йиллардаги собиқ Совет иттифоқи сиёсатининг таркибий қисмига айланган эди¹⁰. Айниқса иккинчи жаҳон уруши даврида Совет давлати ўз таркибидаги халқларга нисбатан қатоғончилик сиёсатини янада кучайтирди. Чегара районларда яшовчи халқлар – финлар, поляклар, курдлар, кейинчалик месхети турклар, хамшаллар сиёсий манфаатларни кўзлаб, яъни «чегара ҳавфсизлигини» таъминлаш мақсадида мамлакатнинг бошқа ҳудудларига зўрлик билан депортация қилинди¹¹. «Чегара ҳавфсизлигини таъминлаш» мақсадида бу ердан халқларни депортация қилиш қуйидаги мулоҳазалар билан «асосланди»:

- чегара районларда яшовчи кам сонли халқларнинг душман томонига ўтиб кетиши эҳтимоли.

- ушбу депортацияга дучор бўлган халқлар орасида айрим кишиларнинг фашистларга кўмак берганлиги оқибатида бутун халқ айбдор, хиёнаткор халқ деб ҳисобланди. Аслини олганда, Совет давлатида амалга оширилган бутун депортация сиёсати халқлар орасидаги норозилик ҳаракатларини бостириш ҳамда халқларни жазолаш сифатида қўлланилган эди¹². Депортация сиёсатининг жабрини тортган, зўравонликка дучор этилган халқлардан бири месхети турк халқи эди. Улар асрлар давомида Грузиянинг жанубидаги Месхет-

⁹ Депортация атамаси – лотинча, «мажбурийкўчириш», «сурғунқилиш» маъноларини билдиради.

¹⁰ Раҳмонкулова А. Шўротузумининг 30-50 йиллардаги қатоғонлики сиёсативаунингусуллари. // «Ўзбекистон тарихи». 2000. № 1-2. – Б. 96.

¹¹ Ўша жойда. – Б. 98.

¹² Раҳмонкулова А. Шўротузумининг 30-50 йиллардаги қатоғонлики сиёсативаунингусуллари. // «Ўзбекистон тарихи». 2000. № 1-2. – Б. 96.

Жавахети тарихий областида, яъни hozirgi Грузиянинг Ахалцихрегионида яшаган эдилар. 1944 йил 14 ноябрда месхети турк миллатига мансуб бўлган фуқароларнинг ўз турар жойларидан Ўрта Осиёга кўчиб кетиши ҳақида фармон чиқарилди¹³. Фармонда кўчириш сабаби изохланмаган бўлса-да, бошқа мажбуран кўчирилган халқлар сингари совет ҳокимиятига нисбатан тахмин қилинган садоқатсизлик ва фашистларга кўмак бериш эҳтимоли ушбу халқнинг «айби» ҳисобланган ва кўчириш учун «асос» бўлган эди. Месхети туркларни депортация қилиш схемаси аниқ ишлаб чиқилган бўлиб, улар яшайдиган қишлоқлар ўраб олиниб, эшелонларга жойлаштирилди ва Ўзбекистон, Қирғизистон ва Қозоқистонга жўнатилди. Месхети туркларга кетишга тайёргарлик кўриш учун атиги икки соат вақт берилди¹⁴. Натижада бу халқ йўлга энг керакли нарсаларинигина ола олди ва юпун ҳолда: етарли озиқ-овқатсиз, медицина ёрдамидан бебаҳра ҳолда тайинланган жойга икки ойдан кўп вақт давомида етиб борди. Йўлда очликдан, совуқдан, ҳар хил касалликлардан ўн минглаб кишилар (баъзи маълумотларга кўра «махсус кўчирилган»¹⁵) месхети туркларнинг ярми¹⁶) вафот этди.

Москвада фаолият юритувчи «Ватан» месхети турклари Халқаро жамияти президенти Сулеймон Барбакадзенинг «Независимая газетасига» айтишича, тақрибан бир кеча-кундуз давомида Грузиянинг 224 та қишлоғидан 92 мингдан зиёд кишини кўчирганлар¹⁷. Грузия жанубидан чиқариб юборилган месхети турклар сонини аниқроқ қайд этадиган бўлсак, улар сони 110 минг кишини ташкил этган эди.¹⁸ Лекин шуни ҳам алоҳида қайд этиш керакки, депортация натижасида Грузиядан чиқариб юборилган турклар сонини тўла аниқлаб бўлмайди, чунки кўчириш вақтида улардан қанчаси ҳалок бўлганлигини номаълумдир¹⁹. Шунингдек, кўп вақт давомида месхети турк халқининг миқдори ҳам ноаниқлигича қолди, чунки кўпчилик месхети турк миллатига мансуб кишилар давлат статистика ҳужжатларида озарбайжон ва грузин миллатига мансуб деб расмийлаштирилган эди. 1956 йилда туркларнинг Ўрта Осиё ва Қозоғистонга мажбурий кўчирилиши бекор қилинганлиги уларга маълум қилинди. Бироқ ўша вақтда уларнинг тарихий яшаб турган жойи чегара зона деб аталган зонага – СССР чегараси бўйидаги алоҳида территорияга киритилган эди. Бу жойга келиш ва унда яшаш қатъий чеклаб қўйган эди. Аслида бу туркларнинг ўз юртларига қайтиши тақиқланганлигини

¹³ Совет Ўзбекистони. 1988 йил 15 сентябр. № 212 (20.180).

¹⁴ Ўшажойда.

¹⁵ Махсус кўчирилган халқ дейилганда мамлакатда эркин ҳаракат қилиш ҳуқуқидан маҳрум этилган халқ қанисбатаниш латилган.

¹⁶ Московские новости. 18 июня 1989 г. № 25.

¹⁷ Google.uz. Марказий Осиё аниқликлари. Анатолий Гордиенко. Независимая газета. 16. 10. 2005.

¹⁸ Совет Ўзбекистони. 1988 йил 15 сентябр. № 212. (20.180)

¹⁹ Московские новости. 18 июня 1989 г. № 25.

билдирарди²⁰. Шундай қилиб, 1944 йилда Ўрта Осиёга депортация қилинган месхети туркларнинг энг кўп қисми Ўзбекистонга жойлаштирилди. Республикамизда месхети турк халқининг катта гуруҳлари Тошкент вилоятида, Сирдарё вилоятида, Фарғона вилоятида ва бошқа вилоятларга жойлаштирилган эди. Месхети туркларни асосан қишлоқ ҳудудларига жойлаштириштиришга буйруқ бўлди ва улар асосан вилоятнинг шаҳарга яқин ва район марказларига жойлашишди. Уларни жойлаштириш учун уй-жой муаммоси юқори бўлганлиги учун уларни аҳоли хонадонларига 4-5 хўжалик қилиб, шунингдек, жамоат жойларига (чойхона, мактаб, боғчаларга) жойлаштиришди.

Республикамизга жойлаштирилганидан сўнг Тошкент ва Сирдарё вилоятида яшовчи кўпчилик турклар асосан қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришида банд бўлган бўлсалар, Самарқанд вилояти ва Фарғона водийсида яшовчи ушбу халқ вакиллари саноат ва қурилиш ишларида фаолият олиб борганлар²¹. Ўзбек халқи уруш йилларида сургун қилинган бу мазлум халққа бошпана берди, ўз уйини ва нонини улар билан баҳам кўрди, асосиз равишда репрессия қилган бу халқнинг оёққа туриб олишига ўзининг ёрдамини аямади. Узоқ йиллар яхши-ёмон кунларида бир-бирига суяниб, девор-дармиён қўшни бўлиб яшаган бу икки миллат кишиларининг дўстлиги биродарлигига уруш даврининг оғир пайтларда ҳам путур етмади, қайтага мустахкамланиб борди. Ўзбек халқи ўзининг меҳмондўстлиги, бағри кенглиги, толерантлик табиатини яна бир бор исботлади. Шунинг учун ҳам месхети турк халқи Ўзбекистонда ўзларини бегона хис этишмади. Ўзбек халқи борини баҳам кўриб, бошига мусибат тушганларни ўз оға-иниларидек қабул қилишди. Оғир кунларда тутинган дўстлик, умрбоқий бўлади деганларидек, бу халқлар ўртасида меҳр-оқибат кучайиб борди.

Умуман олганда, тили, дини, маданияти жиҳатдан бир-бирига яқин бўлган, келиб чиқиши бир илдизга бориб тақаладиган икки халқ узоқ йиллар давомида аҳил оила каби яшашди. XX асрнинг 80-йилларидан бошлаб Ўзбекистонда яшаётган, депортация сиёсати оқибатида ўз ватанларидан қувилган кам сонли халқлар ўз ҳуқуқлари учун кураш бошладилар. Хусусан, 80-йилларнинг охирларида ўз ватанлари ҳисобланган Грузиянинг тарихий Месхетия вилоятига кўчиб бориш Марказий Осиё республикаларида яшаётган туркларнинг ягона мақсадига айланди. Улар бу эзгу ниятда турли хил жамиятлар туза бошладилар ва бу мақсадларини тинч йўл билан амалга оширишни кўзлаган эдилар. Лекин собиқ Совет иттифоқи месхетиялик туркларнинг бу эзгу мақсадларини амалга оширишга ожиз эди. Чунки Грузия ССР месхетиялик туркларнинг бу

²⁰Ўша жойда.

²¹ А. Г. Осипов. Ферганские события 1989 года. – М.: Наука, 2004. – Стр.167

талабларига эътибор бермаган ва уни амалга оширишни режалаштирмаган эди. Шу билан бирга Собиқ иттифок раҳбарлари туркларнинг бу интилишлари Иттифок тақдири учун халокатли эканлигини ҳам англаб эдилар. Шунинг учун ҳам Иттифок раҳбарлари туркларнинг ўз ватанларига қайтиш истаклари ва Ўзбекистондаги миллий уйғониш жараёнларга бефарқ қараб тураолмас эди. Шу сабабли ҳам Собиқ иттифок меҳнатқил туркларнинг ватанларига қайтиш истакларини йўққа чиқариш, Ўзбекистондаги миллий уйғониш жараёнларини олдини олиш ва республикадаги вазиятни маълум вақт давомида ўз назоратига олиш мақсадида 1989 йилда Фарғона фожиялари номи билан аталган фожияни ташкил этди.

Собиқ Совет иттифоқи раҳбарияти фожия баҳонаси билан меҳнатқил туркларни Ўзбекистондан кўчириб кетиб Россиянинг кишилар ташлаб кетишлари натижасида бўшаб қолаётган қишлоқларига жойлаштирди. Шундай қилиб, ярим аср давомида бу халқ икки марта сургун азобини тортишга мажбур бўлди. Лекин шунга алоҳида эътибор бериш керакки, Фарғона фожияси ўзбек ва турк халқларининг бир-бирларига бўлган адоватидан келиб чиққан эмас эди. Фожия натижасида кўплаб кишилар халок бўлди, кўплаб oilаларда гўдаклар етим қолишди. Хозиргача бу фожияни кишилар қайғу билан эслашади ва у етказган жароҳатлар юраклардан кетган эмас.

ЮКСАК БИЛИМЛАР САРИ

Аҳмедова Мактубахон Соҳибжоновна

37-умумий ўрта таълим мактаби
маънавий-маърифий ишлар бўйича директор ўринбосари
Фарғона вилояти Бағдод тумани

Юртимизда ёш авлодни жисмонан соғлом, маънан баркамол этиб тарбиялаш, интеллектуал салохиятини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ўқувчи-ёшларнинг чет тилларни пухта ўзлаштирилиши учун барча шарт-шароит ва имкониятларнинг яратиб берилётгани ҳам бу борада муҳим аҳамият касб этмоқда.

Мустақиллик йилларида ҳар бир соҳадаги амалга оширилаётган юксалишлар, таълим соҳасидаги, тиббиёт соҳасидаги, инсонлар ҳаётидаги ижобий ўзгаришлар, буларнинг барчаси инсонларнинг билим самарадорлигининг ва тажрибаларининг юқорилигига узвий боғлиқдир.

Мамлакатимизда ёш авлоднинг билимли, изланувчан, янгиликка интилувчан, комил инсон бўлиб вояга етишида унинг туғилишидан бошлаб сифатли тиббий хизматлардан фойдаланишдан тортиб, мактабгача таълим муассасаси, мактаб, олий таълим муассасасида таълим олиш жараёнларида ўзи хоҳлаган ва ўзини қизиқиши юзасидан фан ва спорт тўғрақларида таълим олиши, ўз билим самарадорлигини ошириш имкониятига тўлиқ эга. Таълим муассасаларида ташкил этилаётган фан ва спорт тўғрақларининг ўсиб келаётган ёш авлоднинг сифатли ва қўшимча билим олишида, уларнинг бўш вақтларини мазмунли ташкил этишда, ўқувчи ёшлар ўртасида жинойтчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда катта аҳамиятга эга.

Мен фаолият юритаётган Фарғона вилояти Бағдод тумани халқ таълими бўлими 37-умумий ўрта таълим мактабида 2020-2021 ўқув йилида 38 та фан 5 та спорт тўғрақлари ташкил этилган бўлиб, ушбу тўғрақларга жами 568 нафар ўқувчилар жалб этилган. Ўқувчилар ушбу тўғрақларда ўқув фанларининг режаларидан ташқари, янги ва замонавий билимларга эга бўлмоқдалар. Эгаллаган билимлари асосида амалий инноватсион ишларни амалга оширмоқдалар.

Ҳозирги кунда ҳар бир соҳада янгиликлар кашф этилмоқда. Ўқувчиларнинг фан тўғрақларида олаётган қўшимча билимлари уларнинг янада изланувчанликка, янги билимларни кашф этишга, янги ғоялар яратишга, уларни ҳаётга татбиқ этишга чорлайди.

Тил билган –эл билади, дейди халқимиз. Ҳозирги кунда мамлакатимизда туризм соҳасига катта эътибор қаратилмоқда. Туризм соҳасини ривожлантириш

бўйича янги қарор ва лойихалар амалга тадбиқ этилмоқда. Бу соҳа жадаллик билан ривожланмоқда. Юртимизнинг ҳар бир гўшасида азиз қадамжолар мавжуд. Бу соҳада фаолият юритиш учун юртимизда ёшларга барча имкониятлар етарли. Бунинг учун ёшларимиздан кучли билим ва салоҳият, чет тилларини чуқур билишлари, чет мамлакатлар маданиятини, урф-одатларини билишлари талаб этилади. Чет тилларини билган ҳар бир ўғил-қиз ички туризмни ўз қишлоғида, туманида ривожлантириш, чет элларда таҳсил олиш имкониятларига эга бўла олади.

Ёшларимизнинг билим олишлари учун таълим муассасаларида фаолият олиб бораётган фан ва спорт тўғрақларининг ўрни ва аҳамияти катта.

Биргина рус тили ва инглиз тили фан тўғрағи мисолида кўрадиган бўлсак, ўқувчиларнинг чет тилларини ўрганишларида, бу фанлардан қўшимча билим олишларида, бу тиллардан сўз бойлигининг ортишида, рус ва инглиз тилларида сўзлаша олиш қобилиятининг ривожланишида катта ёрдам беради.

Ҳозирги кунда ёшларимизда орзулар катта. Улар келажакда юртимизни бутун дунёга танитиш учун бор имкониятларини ишга солишга тайёр. Чет тилларини билиш эса уларни ҳар бир соҳада жаҳон сахналарида ўзини кўрсата олиши, бутун дунё ёшлари билан мулоқот қила олиши, улар билан бир қаторда муваффақиятларга эришишида уларга қанот бўлади.

Биргина спорт соҳасини оладиган бўлсак, ҳар бир спортчи ўзининг йўналиши бўйича жаҳон ареналарида юксак марраларга эришишни, чет мамлакатларида нуфузли мусобақаларда иштирок этишни, чемпион бўлишни орзу қилади. Ҳозирги кунда юксак марраларни кўзлаган спортчининг чет тилларини мукамал билиши жаҳон мусобақаларида қийинчиликларсиз иштирок этишини таъминлайди. Бунинг учун ҳар бир ўқувчи ёшлигиданоқ ўзи учун яратилган кенг имкониятлардан оқилона ва самарали фойдаланиши, бўш вақтларини мазмунли ташкиллаши, чет тилларини мукамал ўрганиш учун ҳаракат қилмоғи даркор.

Ҳозирги кунда интернет саҳифаларидаги маълумотларнинг катта қисми инглиз ва рус тилиларида берилади. Бу маълумотлардан фойдаланиш учун албатта ўқувчи бу тилларни ва уларнинг грамматикасини пухта билиши лозим. Ўқувчи бундай маълумотларни ўқув фанларидан ташқари фан тўғрақларида ва қўшимча дарсларда олиши мумкин. Ҳозирги кунда таълим муассасаларида ташкилланган фан ва спорт тўғрақлари бепул тарзда ташкилланган. Бу эса мамлакатимизда ёшларнинг чуқур билим олишлари, бўш вақтларини мазмунли ва режали ташкил этишлари учун яратилган кенг имкониятларнинг бир намунаси десак муболаға бўлмайди.

Бу мисоллар таълим муассасаларида ташкил этилган биргина рус тили ва инглиз тили фан тўғрақлари мисолида холос.

Ота-оналар ва устоз-мураббийлар ўқувчининг қизиқишларига эътиборлироқ бўлса, уларнинг бўш вақтларини мазмунли ташкиллашса, ўйлаймизки ёшлар ўртасида турли хил жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олди олинади. Ватанимиз ёшлари келажакда бутун дунё ёшлари билан ҳар бир соҳада беллаша оладиган етук ва комил инсон бўлиб вояга етади.

DIPLOMATIYANING INTERNET DAVRIGA MOSLASHUVI

Hamrakulova Ravshanoy Abdulaxatovna

Farg'ona davlat universiteti, Magistratura bo'limi

Lingvistika, ingliz tili II bosqich magistranti

Annotatsiya: maqolada diplomatik aloqalarning zamonaviy texnologik qurilmalar orqali olib borilayotganligi va uning taraqqiy etishi uchun sabablari keltirilgan.

Kalit so'zlar: taraqqiyot, xavfsizlik, hamkorlik

Annotation: The article explains the reasons for using IT technology in communication between diplomatic matters and its development

Key words: development, safety, collaboration

Hozirgi davrda bo'layotgan texnologik o'sish, albatta, diplomatik aloqalarga ham o'zining samarali ta'sirini ko'rsatdi. O'zgarishlar tufayli diplomatlar ham zamonaviy aloqa vositalardan foydalanishni bilishi muhim ahamiyatga kasb etdi. O'zaro muloqot almashinish va ikki tomon uchun foydali muzokara o'tkazishga, albatta, noto'g'ri jo'natilgan ma'lumot ta' sir qiladi. Diplomatlar elektron pochta orqali kelgan xabarni o'qishi va unga munosib javobini qaytarishi lozim. Taraqqiyot moslashuvni va rivojlanishni talab qiladi. Elektron pochtni muntazam ravishda ochib xabardor bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi. Lekin bu elchilarning kun bo'yi internetda turli xabarlarini o'qish bilan majhul bo'lishini anglatmaydi. Elektron pochta orqali muzokaralar ko'plab hukumat a'zolariga ma'quldir. Chunki elektron xabar yo'llash ham vaqtni, ham mablag'ni tejaydi. Xabarlar rasmiy tilda belgilangan tartibda yuboriladi. Hozirgi vaqtga qadar dunyoda bo'layotgan mavjud pandemik vaziyatda ham elektron muloqotning afzalliklari yanada yorqinroq namoyon bo'ldi. Bir qancha davlatlar o'zaro bir - birlari bilan ham moddiy, ham ma'naviy ko'mak uchun aloqada bo'ldilar. Internet zamonida yer shari xuddi kaftdagidek gavdalanmoqda. Sababi shundagi, internetdan foydalanib, insoniyat bir-birlariga bir zumda ma'lumot yubormoqda. Mening fikrimcha, diplomatlarning o'zaro ko'rishib davlatga oid masalalarni hal qilishsa, to'g'riroq bo'ladi. Chunki suhbatdoshning turli imo - ishoralaridan suhbatning natijasi qisman ma'lum bo'ladi. Darhaqiqat, diplomatlar yuqori saviyadagi psixologik, strategik va til bilish ko'nikmalariga ega shaxslar hisoblanadilar. Shu tufayli, ular muzokaralar davrida xuddi shaxmat o'ynayotgan sportchidek yurish qiladi. Qaysi so'z qanday ta'sir ko'rsatishini oldindan his qilib, ehtiyotkorlik bilan ularni tanlaydi. Ayni damda, ma'lumotning keng ko'lamda tarqalishi va uni topishning osonligi diplomatiyaning tezligini oshishiga va jadalroq munosabat bildirilishiga turtki bo'lmoqda. Bundan tashqari, XXI asr har sohalarda

ko'plab tajribali xodimlarni talab qilmoqda. Jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiyot, inson huquqlari, sog'liqni saqlash sohalarda yangi malakali kadrlar yetishib chiqishi lozim. XXI asrda diplomatiya jadal rivojlanayotgan hamkorlik hamda turli muammolarni hal qilishga qaratilgan aloqa sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, siyosatchilarga samarali ishlarni amalga oshishini ta'minlaydi. Yuqorida aytib o'tilganidek, diplomatiyaning xususiyatlari Grem Devis va Jefri Nyunhemning tipiklashtirishiga o'xshaydi. Ular diplomatiyaning o'zgarishlarini ta'riflaganda, o'ziga xos qurilmaga aylanganini aytib o'tishadi. Masalan, ular quyidagilarga urg'u berishadi: diplomatik suhbatlarning kengaygani, nigohning ko'p tarmoqli ekanligi, mutaxassislarning ko'paygani, ommaviy axborot vositalarning ahamiyatini oshganligi, xalqaro munosabatlarning hamkorligi va boshqa davlat aloqalarning o'sganligini ta'kidladilar. Aslida, diplomatiyaga taraqqiyot tinimsiz ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida aytganimdek, taraqqiyot zaruratdan kelib chiqadi. Taraqqiyotning shiddat bilan rivojlanayotganini inobatga olsak, turli xil muammolar ham o'sayotganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, atrof-muhitni ifloslanishi, insonlarni hayotiga ta'sir qiluvchi giyohvand moddalarning ko'payishi, psixologik hujumlarning ortishi kabi muammolar o'ziga xos qat'iylikni va choralarning keskinligini talab qiladi. Shu sababli, diplomatiya nafaqat iqtisodiyot va jamiyatni rivojlanishiga xissa qo'shishi, balki jamiyatning ham jismonan, ham ruhan kamol topishi uchun xavfsizlikni ta'minlashi lozim. Didzis Klavinsni fikriga ko'ra bir necha yillar mobaynida diplomatiyaning asosi hisoblangan xodimlar bir qarorga kelishlari kerak. Agar ular oldingi usullardan foydalanishda davom etsalar, u holda najisasi samarasiz bo'lishini aytib o'tadi. Bundan tashqari, muallifning ta'kidlashicha, xalqaro munosabatlardagi muammolarni yechishda yangi tizimni joriy qilish lozimdir.

Texnologiyaning diplomatiyaga ta'siri oqibatida yangi terminlar ham muomalaga kiritildi. E-diplomacy (elektron diplomatiya), cyber diplomacy (kiber diplomatiya), Internet diplomacy (internet diplomatiya), digital diplomacy (raqamli diplomatiya), online diplomacy (onlayn diplomatiya), electronic diplomacy (elektron diplomatiya), e-diplomat (elektron diplomat), e-international relations (xalqaro onlayn aloqalar), internet siyosati va boshqa neologizmlar kirib keldi.

Raqamli yoki elektron diplomatiya bu xalqaro diplomatik munosabatlarda internet va aloqa vositalardan foydalanish tushuniladi. Dastlab, bu atamadan AQSH siyosatida texnologiyadan keng foydalanganligi uchun qo'llanilgan. Bundan tashqari, bu termin "internet diplomatiya", "ijtimoiy tarmoqlar diplomatiyasi", Web 2.0 diplomatiyasi deb ham yuritiladi. Twiplomacy -(tviplomatiya) Twitter ijtimoiy tarmog'ida raqamli diplomatiyaning faoliyatiga aytiladi. Axborot texnologiyalarning tobora yangi modellarini kashf etilishi oqibatida yangi so'zlarni muomalaga kiritilishi ham oshib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Understanding the Essence of Modern Diplomacy Didzis Klavins (University of Latvia)
2. The Internet and Diplomats of the Twenty First Century: How New Information Technologies Affect the Ordinary Work of Diplomats Stefano Baldi
3. Рақамли дипломатия ва мамлакат бренди: ижтимоий тармоқлар ўзбек сиёсатчиларига керакми? 02.02.2019

YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI

Egamova Maqsudaxon

Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani 42-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh avlod ongida milliy g'oya va ma'naviy sog'lom mafkurani shakllantirishning mohiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Mafkura, g'oya, immunitet, ma'naviyat, urf-odat, madaniyat.

Ma'lumki, bugungi murakkab globallashuv o'zgarishlar sharoitida mafkuraviy kurash, inson ongi va qalbini egallash uchun olib borilmoqda. Bu kurashning zahirida esa, turli yot va vayronkor g'oyalarni amalga oshirish yotadi. Shunday ekan, mamlakat mustaqilligini mustahkamlashning muhim shartlaridan biri ham g'oyaviy tarbiyani kuchaytirishdir.

Odamning ma'naviyatiga tahdid soladigan xavflar va ulardan o'zini ongli himoya qilish ko'nikmalari ta'lim-tarbiya, ota-onalar o'g'itlari, yaxshilik va yomonliklarni ko'rish va bilish jarayonida shakllana boradi. Bolaga ilk yoshdan boshlab nima yaxshi, nima yomon, ularga qanday munosabat bildirish kerak degan, savollarga asoslangan holda aytish mumkinki oila, mahalla va ta'lim muassasalari bo'lmish bog'cha, maktab tarbiyasi, undan keyin ijtimoiy tarbiya uzviyligi yo'lga qo'yilsagina har bir millat sog'lom, ishonchli, mustahkam immunitetga ega bo'ladi. Immunitet esa o'z navbatida, odamni to'g'ri yo'ldan “ozish”dan, turli yo'llarga adashib, keyin pushaymon bo'lishlardan, baxtsizlikdan, millatni esa parokandaliklardan, parchalanishlardan, sinfiy, mahalliy yoki boshqa bo'linishlardan asrab turadi. “Mafkuraviy immunitet shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi”. Bevosita, mafkuraviy immunitet davlat va millatning ma'naviy birligini, sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi.

Hozirgi kunda yoshlarimizda turli xil yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Binobarin, bu jarayon jamiyat, davlat, xalq va millat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ma'rifiy, ta'lim-tarbiya va mafkuraviy jarayonlarning uzviy birligi asosida amalga oshadi. “Immunitet so'zining ma'nosi (lot.*Immunitas*—ozod bo'lish, qutulish) tibbiy tushuncha bo'lib, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o'zini turli ta'sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmui tushuniladi”. Soda qilib aytganda, birinchidan, immunitet – inson organizmining turli kasalliklaridan himoya qila olish qobiliyatidir. Vaholanki,

bugungi kun yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ikkinchidan, u har bir yosh avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'lmog'i lozim. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlash mumkin. Yoshlarimizni turli g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immunitet hosil qilish uchun uni, avvalo, taraqqiyot qonunlarini chuqur aks ettiradigan sog'lom, insonparvar g'oya va mafkura bilan qurollantirish kerak. O'zligimizni, ozod – axloqimizni, merosimiz, qadriyatlarimiz va milliy ruhimizni zararli g'oyalar va mafkuralar ta'siridan avaylab-asrash, ularga qarshi yoshlarimiz qalbida va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish orqaligina millatni asrash mumkin.

Jahondagi har bir xalq va davlat o'z yoshlarini milliy g'oya ruhida tarbiyalagan taqdiridagina o'z kelajagini ta'minlashi, yuksak taraqqiyotga erishishi mumkinligini hozirda butun dunyo tan olmoqda. Hozirgi kunda yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirishda, ta'lim va tarbiya, fan, madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar, adabiyot va san'at, din, jismoniy tarbiya va sport, urf-odat, marosim va bayramlar, oila, mahalla, mehnat jamoalari, siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari orqali milliy g'oyani va milliy mafkuraviy immunitetni xalqimiz, ayniqsa yoshlar ongiga singdirishda qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –Toshkent: G'ofur G'ulom nashriyoti, 2010. 292-bet
2. <http://manaviyat.uz/post/view/279>

IMKONIYATLAR SARI QADAM

Ernazarova Dilnoza Ibragimovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi 1-sonli Mehribonlik uyi tarbiyachisi

To'rayeva Lobar Ikrom qizi

Qoraqalpoq Davlat Universiteti Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistika fakulteti

2-bosqich talabasi

Agar mendan: "Sizni nima qiynaydi", - deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman

Sh.M.Mirziyoyev

Mamlakat taraqqiyoti, uning rivojlanishi, o'sha davlat yoshlarining kelajagiga bog'liq. Asrlar davomida yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni yetuk, barkamol insonlar qilib tarbiyalash azaliy va asosiy vazifalarimizdan bo'lib kelgan. Bugungi kunda ham yoshlarimizning ta'lim-tarbiya olishi, o'z iqtidorlari va qiziqishlari asosida to'g'ri yo'lni tanlashi uchun



hamma narsa muhayyo. Shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanidagi 1-sonli Mehribonlik uyida ham yuzdan ortiq bolajonlar tarbiyalanmoqda. Ular uchun barcha sharoitlar yaratilgan, Xususan, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish uchun raqs, futbol, kurash, suzish, fortepiano, voleybol, shaxmat-shashka, stol



tennisi, kompyuter savodxonligi, pazandachilik, kitobxonlik, tikuvchilik, rassomchilik, kashtachilik, sartaroshlik kabi to'garaklar ishlab turibdi. Bundan tashqari, bolajolarimizni iste'dodlarini namoyish qilishlari uchun "Tong g'unchalari" milliy raqs guruhi, "Qars" milliy musiqa asboblari guruhlar

ham o'z faoliyatini olib bormoqda. Tarbiyalanuvchilarning bir qator yutuqlarini ta'kidlab o'tadigan bo'lsak:

2018-yil 3-7-oktabr kunlari oralig'ida Koreya mamlakatida o'tkazilgan “Ariran” nomli xalqaro milliy festivalda milliy raqs yo'lanilishi bo'yicha laureat bo'lib, bolajonlarimiz har biri diplom bilan taqdirlandi.

2019-yil Xo'jayli tumani kasaba uyushmasi tomonidan o'tkazilgan sportning voleybol turi bo'yicha 23 jamoa orasida Mehribonlik uyi o'g'il bolalari faxrli III o'rinni egalladi.

O'sha yili mart oyida Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari o'rtasida o'tkazilgan “Kamalak jilosi” Respublika rasmlar ko'rik tanlovida M.Qosimbetov “Xitoy mening tasavvurimda” mavzusida chizgan rasmi uchun II darajali diplomga o'ringa sazovor bo'ldi.

2019-yil 1-iyun “Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni” munosabati bilan Rossiya Federatsiyasi Moskva shahrida o'tkazilgan bayram tadbirida tarbiyalanuvchi Karamova Rano faol ishtirok etib qaytdi.

2019-yil 25-27-sentabr kunlari Nukus shahrida sportning tennis turi bo'yicha o'tkazilgan Qoraqalpog'iston chempionatida Bogush Yana, J.Abduhalikova, M.Karamanovlar g'olib bo'ldi va bir qator sovrinlar bilan taqdirlandi.

2019-yil 31-oktabrdan 3-noyabr kunlari oralig'ida Toshkent shahrida “Iqtidorli bolalar” xalqaro innovatsion jamoasi birlashmasi tomonidan o'tkazilgan festivalda “Tong g'unchalari” qoraqalpoq milliy raqs guruhi GRAN-PRIni qo'lga kiritdi va tarbiyalanuvchimiz Karamova Rano I darajali diplom bilan taqdirlandi.



2019-yil 22-24-noyabr kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan “OPEN ASIA” xalqaro festivalida qoraqalpoq milliy raqs bo'yicha karamova Rano I darajali diplom bilan taqdirlandi.

2020-yil mart oyida Qoraqalpog'iston Respublikasi Yuqori Kengashi tomonidan tarbiyalanuvchi Ra'no Karamova “Umid uchquni” ko'krak nishoni

va pul mukofoti bilan taqdirlandi.

2020-yil dekabr oyida Polsha Respublikasida o'tkazilgan “Xalqaro festival FOLKOWE INSPIRACJE 2020” onlayn tanlovida “Tong g'unchalari” milliy rasq guruhi ishtirok etib, faxrli III o'rinni egalladi. Bundan tashqari Abdireymova Kamshat, Tursinbaeva Albinalar faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Bu kabi muvaffaqiyatlarni ko'plab aytib o'tish mumkin. Albatta, bular barchasi ortida mashaqqatli mehnat yotadi. E'tirof etish joizki, shu maskan direktori Son Svetlana Mixaylovna bolajonlarning kamolga yetishishida bor xizmatini ayamagan. Davlatimiz u insonning fidoiy xizmatlari munosib baholab, 2007-yil “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi”, 2018-yil “Soglom avlod uchun” II darajali ordeni, 2019-yil “Mo’tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

FALSAFA BU TARAQQIYOTNING TAFAKKUR MADANIYATIDIR

O'.B.Ochilov

O'R OHABYu Ijtimoiy - iqtisodiy
va gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalash uchun avvalombor falsafiy bilimlarga ega bo'lishligi bilan bir qatorda, har bir insonning jamiyatda tutgan o'rni va mavqei yuzasidan kerakli bilim va tafakkurga ega bo'lishliklari to'g'risidagi falsafiy fikr, bilim va tushunchalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qadriyat, borliq, tafakkur, mohiyat, materializm – idealizm, girdob, meros, inson dunyoqarashi, falsafiy ta'limot, tarixiy va madaniy mavjudot.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach yaratilgan shart - sharoitlar, *mavjud* ehtiyojlar va imkoniyatlar Falsafa faniga milliy ma'naviyatni o'zida aks ettirgan umuminsoniy qadriyat sifatida yondashish, jamiyat tarixida shakllangan muqobil falsafiy ta'limotlarni bir - biri bilan uzviy bog'langan hodisa sifatida qarashni taqozo etmoqda.

Barcha falsafiy ta'limotlar milliy, mintaqaviy jihatlarga ega bo'lsa ham, olamni bilish, fan va amaliyot yiituqlarini ilmiy umumlashtirishning bir - biri bilan bog'langan turli yo'llari va usullaridir. Tabiat, jamiyat, inson va uning ma'naviyati tahlili tarixida ularning o'ziga xos o'rni va ahamiyati bor. Shu sababli materializm va idealizmni bir - biriga qarama - qarshi qo'yish, ularni progressiv va reaksiyon sinflarning mafkurasi sifatida ta'riflab: birini ijobiy, ikkinchisini salbiy deb baholash ilmiy tafakkur mezonlariga ziddir. Falsafa aniq tarixiy davrlarda, sharoitlarda muayyan darajada rivojlangan, yaxlit fan hisoblanadi.

Falsafa inson bilimlarining oddiy yig'indisi emas, balki ularni aqliy umumlashtirish asosida shakllangan, ilmiy, axloqiy asoslangan umumiy xulosalar tizimidir. Inson falsafiy tafakkur orqali o'z mohiyatini, borliqdagi o'rnini biladi, avlodlar qoldirgan meros, o'z davrining amaliy, ilmiy yutuqlarini umumlashtirib, olamni bir - biri bilan bog'langan, taraqqiyotda bo'lgan jarayon sifatida anglaydi, istiqbol rejalarini belgilaydi:

Falsafa - tafakkur madaniyati, borliq haqidagi bilimlarning insoniyat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy taraqqiyoti tarixining umumlashgan ifodasidir.

Falsafa insoniyat tarixida amalga oshirilgan boy tajribani yaxlit o'rganib, umumlashtirib, ularning ijobiy, salbiy jihatlarini tahlil etib, kelajakni oldindan ko'rishga imkon beradigan, kishilarning yangi sharoitlardagi faoliyatiga asos bo'ladigan umumiy xulosalar tizimini yuzaga keltiradi. Falsafada o'tmish tahliliga katta e'tibor berilsa ham, asosiy maqsad - jamiyatning, insonning istiqboli bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganishdir. Shu jihatdan jamiyatning tarixi va

kelajagini yoritishga qaratilgan barcha ijobiy ijtimoiy, siyosiy g'oyalar, jumladan milliy g'oyalar ham, o'ziga xos falsafiy umumlashmalar, xulosalardir.

Falsafaga yangicha yondashish uning inson ijtimoiy, ma'naviy kamolotidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsata bilishni ham taqozo etadi. Bu fan faqat faylasuflargagina emas, barcha sog'lom fikrlovchi, aqlli insonlarga xos tafakkur usulidir. Falsafani bilmaydiganlar ham, hatto uni inkor etuvchilar ham, o'z hayoti va aqliy salohiyatida falsafiy fikrlash ehtiyoji doirasidan chiqib keta olmaydilar.

Jamiyatda, jamoa ichida yashash, faoliyat ko'rsatish ehtiyojlari, imkoniyatlari, hayot quvonchlari va tashvishlari bizni hamma vaqt falsafiy fikrlar girdobiga tortadi. Falsafaning ilmiy umumlashmalar qilish sohasidagi imkoniyatlari boshqa birorta fanda yo'q. Falsafani fan sifatida o'rganish: inson o'z hayoti va aqliy faoliyatida, fikrlash jarayonida o'tgan ajdodlar yaratgan meros, qadriyatlar, an'analar, fikrlash usullariga, mukammal g'oyalarga tayanishiga imkon beradi. Falsafani yoshlarga o'rgatish esa ularni erkin, ijodiy fikrlab, hayot saboqlaridan, olgan bilimlaridan mustaqil xulosalar chiqarishga o'rgatishdir.

Turli fanlar, ularning tarmoqlari soni o'n besh mingdan ortdi. Lekin, bu jarayon falsafaning ahamiyatini aslo kamsitayotgani yo'q. Fan rivojlangani sari turli sohalarda qo'lga **kiritilayotgan** kashfiyotlarni bir - biri bilan bog'lash, umumlashtirish, yakuniy xulosalar chiqarishga ham ehtiyoj ortib bormoqda.

Fanlarning qudrati ular har biri alohida bo'lishida emas, balki bir - **biri** bilan bog'lanib, rivojlanishidadir, Har bir fanning predireti alohida bo'lsa ham, ular o'rganayotgan muammolar yaxlit borliqning bir - biri bilan uzviy bog'langan, birining mohiyatini ikkinchisiz bilib bo'lmaydigan sohalardir.

Faisafa esa, olamning biror sohasini alohida olib o'rganmaydi, balki turli fanlarda qo'lga kiritilgan kashfiyotlarni bir - biri bilan bog'lab umumlashtiradi, ilmiy, axloqiy qadnyatlarga tayanib, yakuniy metodologik xulosalar chiqaradi.

Hozirgi kunda turli fanlar o'rganayotgan muammolar bir - biridan nihoyatda olisdir. Ular hozirga qadar inson tomonidan kashf etilgan tabiat va jamiyatning barcha muammolarini o'z ichiga oladi. Bunday sharoitda bir - biridan olis bo'lgan muammolarni o'rganayotgan olimlar bir - birini falsafiy umumlashmalar orqali anglaydilar.

Falsafaga yangicha yondashish — ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan, inson aql - zakovatining yetuk mahsuli bo'lgan falsafiy meros va qadriyatlarni chuqur, xolisona o'rganish, ularni davrimizning dolzarb muammolari bilan **bog'lab rivojlantirish**, mustaqil O'zbekiston tadrijiy taraqqiyotining **ijtimoiy**, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy muammolarini yaxlit tahlil **qilish**, kishilarning yangi dunyoqarashini shakllantirishdir.

Zero, bu borada birinchi Prezidentimiz I. Karimov: "Biz mamlakatimizda ijtimoiy fanlarning rivoji zamon talablaridan ortda qolayotganini tan olishga

majburmiz. Bu borada xato va kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish choralarini ko'rishimiz lozim"²² - degan edi.

Yangi falsafa, **birinchidan**, barcha falsafiy ta'limotlarni bir - biri bilan bog'lab o'rganishi; **ikkinchidan**, turli xil dunyoqarashlar va fikrlar xilma - xilligiga, hurfikrlilikka asoslanishi; **uchinchidan**, milliy zaminga, umuminsoniy qadriyatlarga tayanishi; **to'rtinchidan**, mustaqillik muammolari tahlilini o'zining asosiy maqsadlaridan bin, deb bilishi, sinfiylik va partiyaviylikni hamda aqidaparastlikni butunlay rad etishi bilan markscha falsafadan tubdan farq qilishi lozim.

Har bir davrning ma'naviy kamoloti darajasi uning falsafiy g'oyalari, qadriyatlari tizimida o'zining aniq ifodasini topgan va topmoqda. Falsafiy qadriyatlar davlatlar, xalqlar va millatlar o'rtasidagi o'zaro do'stlik, hamkorlik, hamjihatlik, birlik va totuvlikni ta'minlashga, komil inson shaxsini tarbiyalashga, mustaqillikni yanada mustahkamlashga, yoshlarimizda yangicha, erkin, ijodiy tafakkur salohiyatining shakllanishiga, fan va madaniyat taraqqiyotiga ilmiy - metodologik zamin bo'lmog'i kerak.

Bu vazifalarni minglab yillar davomida shakllangan, milliy, hududiy, diniy chegaralar bilan cheklanmagan, hayot sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib sayqallangan umuminsoniy falsafiy qadriyatlarga, hozirgi taraqqiyot kun tartibiga qo'ygan dolzarb muammolarni falsafiy umumlashtirishga tayanib bajarish mumkin.

Falsafa yoshlarning yangi dunyoqarashining shakllanishida, ilmiy, ijodiy tafakkur salohiyati rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa, jamiyat taraqqiyoti ma'naviy omillari mustahkamlanishining asosiy shartlaridandir.

Ijtimoiy fanlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati ustida alohida to'xtab, quyidagi fikrlarni aytgan edi: "Fanning vazifasi kelajagimizning shakli - shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat, deb tushuniladi.

Odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo'lmagan millatning kelajagi yo'qligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlab, tusbuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim".²³ Bu fikrlar faisafa fani uchun ham metodologik ahamiyatga ega.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq o'n to'rtinchi sessiyasida so'zlagan nutqida XXI - asrda mamlakatimiz va xalqimiz oldida turgan asosiy vazifalar ustida to'xtab, quyidagi fikrlarni aytdi: "Biz farzandlarimizning barkamol avlod sifatida ularning dunyosi

²² I. A. **Karimov**. Milliy istiqlool mafkurasj — xalq etiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., „O'zbekiston", 2000, 26- bet.

²³ I. A. **Karimov**. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., „Sharq", 1998, 25- bet.
"UzACADEMIA" scientific-methodical journal
www.academiascience.uz

uchun, ma'naviy - axloqiy jihatdan yetuk, jismoniy sog'lom bo'lishi uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz zarur”²⁴.

Faisafa fanini o'qitishda milliy istiqlool g'oyasining mohiyati, ijtimoiy - gnoseologik ildizlari, jamiyat taraqqiyoti va inson ma'naviy kamoloti uchun bo'lgan ahamiyatini chuqur yoritishning imkoniyati kattadir. Milliy istiqlool g'oyasi tarixiy tajribani umumlashtirish asosida istiqlool sari komil ishonch bilan borish yo'lining nazariy asoslarini ko'rsatib beradi. Bu g'oyaning *ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot*²⁵ barpo etish bilan bog'liq bo'lgan asosiy maqsadlari kishilarimizning ongiga ma'rifiy, mafkuraviy tadbirlar orqali singdiriladi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ko'rsatib o'tganidek, **“...jamiyatimiz, mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu muddao va vazifalarni aniq - ravshan belgilab olmasdan turib, millatimizning asriy an'ana va urf - odatlarini, o'zligimizning asosiy xususiyatlarini mujassam etadigan milliy mafkurani shakllantirish mumkin emas”**²⁶.

Shubhasizki, bu muhim vazifani bajarish faisafa fanim ijodiy rivojlantirish, uni oliy o'quv yurtlarida o'qitishni yaxshilash, davrimizning talab va ehtiyojlariga mos keladigan yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratish bilan ham bog'liq. Zero, faisafa inson dunyoqarashi shakllanishiga ijobiy ta'sir etadigan ma'naviy omillardan biri, uning ilmiy - nazariy asosi bo'lmog'i zarur.

Falsafaning yuqorida bayon qilingan mohiyati va ahamiyatidan kelib chiqqan holda ushbu o'quv qo'llanma oliy, o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari uchun yozildi. Qo'llanmaning nashr etilishi, unda o'rta qo'yilgan mavzularning muhokama qilinishi faisafa fanini o'qitishda yana ham takomillashgan rejalarni tuzishga imkon beradi.

Falsafa nihoyatda qadimiy fandir. Olam va odamlar o'rtasidagi munosabatlar, inson qadri va umrning mazmuni, dunyodagi o'zgarishlar, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik hamda taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari falsafaning asosiy mavzulari hisoblanadi.

Inson - falsafaning bosh mavzusi. Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o'rni falsafiy muammolar tizimida muhim o'rin tutadi. Turli falsafiy ta'limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo'lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy - tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o'zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ro'yobga chiqarishga intilaveradi.

²⁴ **I. A. Karimov.** O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., „O'zbekiston“, 1999, 24- bet.

²⁵ **I. A. Karimov.** Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., „O'zbekiston“, 2000, 51-bet.

* **I. A. Karimov.** Milliy istiqlool mafkurasi — xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Asarlar, 8- jild. T., „O'zbekiston“, 2000, 495- bet.

Kishilar qadim zamonlardan boshlab, borliq dunyo, tabiat nima, ular qanday tuzilgan, borliqning asosida nima yotadi, insonning o'zi nima, u dunyoga qanday qaraydi, kabi savollarga javob berishga harakat qilib kelganlar. Falsafiy tafakkur insonning o'z - o'zini anglashidan boshlanadi, uning olam haqidagi bilimlarini umumlashtirish asosida rivojlanib boradi.

Aslida, falsafaning asosiy vazifasi inson ongida sog'lom aqlga mos dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bunday dunyoqarash biron - bir g'oyani zo'rlab singdirish yoki quruq yod oldirish orqali emas, balki ishonitirish, xilma-xil fikrlarni o'rta tashlash, muhokama qilish, zarur tushuncha, tamoyillarni aniqlash jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Falsafa, avvalo, muayyan ilmiy bilimlar tizimidir. U, bir tomondan, insonning voqelikni aql vositasida idrok etishi, ikkinchi tomondan, ongning afsona va rivoyatlar asosidagi shakllardan uzil - kesil ajralish jarayoni natijasidir. Bu ikki jihat bir - biri bilan uzviy bog'liq. Chunki behuda xayolparastlik, havoyi va afsonaviy fikrlash tarzidan xalos bo'lish ilmiy bilimlarni egallash orqali ro'y beradi. Eng muhimi, falsafa kundalik turmushda uchrab turadigan eskilik asoratlari, bid'at va cheklanishlarga muxolif bo'lgan hurfikrlkdir. Falsafa aynan ana shunday yangi dunyoqarashning shakllanishi uchun asos bo'ldi.

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda “yoshlarimizni falsafiy tafakkur bilan qurollantirish” - davr talabi. Nega deganda, hozirgi zamonda har qanday raqib va muxolif bilan bahsga kirishish uchun uning qarashlari va g'oyasi, falsafasini ko'proq bilishimiz, kerak bo'lsa, uning o'zidan ham puxtaroq egallashimiz lozim. Bunda insonning falsafiy qarashlari muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. A. Karimov. “Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar”. T., “O'zbekiston” 2000.
2. I. A. Karimov. “Milliy istiqlool mafkurasi — xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir”. Asarlar, 8- jild. T. “O'zbekiston”, 2000.
3. I. A. Karimov. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”. T., “Sharq”, **1998**.
4. N. Shermuhammedovanning “Falsafa” kitobi. Noshir-T.2012
5. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashri, 2011. - 376 bet.

KORRUPSIYA ILDIZLARINI YO'Q QILAMIZ!

Musayev Ravshan Mansurovich

Ibragimov Alisher Bazarboyevich

Xorazm viloyati Urganch shahridagi

18-son maktabning tarix fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyat uchun nihoyatda xavfli hisoblangan illat, ya'ni korrupsiya, uning ildizlari hamda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash borasida qilinayotgan tizimli ishlar haqida so'z yuritiladi.

Annotation: This article deals with corruption, its roots, and the systematic work being done in our country to combat corruption.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, ildiz, illat, dastur, qonun, nafs, savodsizlik, huquqbuzarlik, kurash, chora-tadbir, komissiya.

Insoniyat yaratilganidan buyon jamiyat rivoji, mamlakat taraqqiyotiga raxna solib kelayotgan illat korrupsiya hisoblanadi. Bugun O'zbekistonda ham korrupsiyaga qarshi keskin va murosasiz kurash olib borilmoqda. Xususan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining tashkil etilishi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturining tasdiqlanishi mamlakatda korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni samarali amalga oshirilishini ta'minladi.

Mavzudan kelib chiqqan holda insonlar haqidagi bir falsafiy fikrga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Inson farishta va hayvonlar orasidagi mavjudot bo'lganligi uchun unda mehr-oqibat, insof, adolat, muhabbat, odamiylik, saxovat kabi ijobiy fazilatlar bilan birga nafs, ochko'zlik, hirs singari hayvoniy illatlar ham uchrab turadi. Aynan mana shunday insoniy fazilatlardan ko'ra hayvoniy illatlari kuchli bo'lgan odamlar korrupsiyaga yo'l qo'yadi. Bunday kimsalar jamiyat uchun nihoyatda xavflidir. Mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar, korrupsiyani yo'qotish uchun qilinayotgan ishlar bugungi kunda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Biroq, shunga qaramasdan jamiyatimizda korrupsion holatlar hali-hanuz uchrab turibdi, afsuski. To'g'ri, bu illatdan qisqa muddatda osonlikcha qutilib bo'lmaydi. Buning uchun har birimiz korrupsiyaga qarshi tinimsiz kurash olib borishimiz, qayerdagi qonun buzilish holatlarini ko'rsak, darhol tegishli tashkilotlarga murojaat qilishimiz, o'z haq-huquqlarimizni yaxshi anglashimiz lozim, deb o'ylayman.

Korrupsiyani hech kimga hech qanday foydasi tegmaydigan ajriqqa qiyoslash mumkin. Uning ildizini o'z vaqtida yo'q qilmasak, kundan kunga rivojlanib, hamma

yoqni egallab boraveradi. Korrupsiyani yo'qotish uchun ham uning ildiziga o'z vaqtida bolta urish lozim. Shu o'rinda korrupsiyaning ildizi nima degan savol tug'iladi. Korrupsiyaning asl ildizi bu-savodsizlik, o'ziga ishonmaslik, o'z haq-huquqlarini yaxshi anglamaslik. Har bir inson, avvalambor, o'ziga ishonishi kerak. Inson qachon o'ziga ishonadi, qachonki uning bilimi, savodi bo'lsa, u boshqalardan najot kutmaydi. Hech kimga hech narsaga qaramasdan o'z maqsadi yo'lida olg'a boradi. Shu o'rinda yana bir falsafiy fikrga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Har bir inson oldida har qanday masalada hamisha ikki yo'l turadi: biri oson yo'l, ikkinchisi qiyin, mashaqqatli yo'l. Oson yo'l doimo insonlarni o'ziga chorlab turadi, lekin bu yo'lning oxiri voy. Qiyin yo'ldan yurish esa hammaga ham yoqavermaydi, biroq bu yo'l porloq kelajak sari yetaklaydi. Bilimsiz, saviyasiz, ma'naviyatsiz, sabrsiz, nafs quliga aylangan odamlar oson yo'lni tanlaydi va botqoqqa botadi. O'ziga ishongan, kelajakni ko'ra oladigan, yuksak ma'naviyatli insonlar mashaqqatli yo'lni tanlaydilar va bir umrlik halovatga erishadilar. Korrupsiya ham oson yo'lni tanlash natijasida yuzga keladi. Shunday ekan, biz yoshlarga umri davomida hamisha to'g'ri yo'ldan, halol yo'ldan yurishni o'rgatishimiz kerak, deb o'ylayman. Shunda korrupsiyaning bir ildiziga bolta urgan bo'lamiz.

Korrupsiya haqida gap ketar ekan, rahbar ma'naviyati degan tushunchani ham nazardan chetda qoldirmasligimiz lozim. Bu oddiy tushuncha emas, rahbar ma'naviyati deganda biror lavozimdagi shaxsning dunyoqarashi, xulq-atvori, uning hayotga bo'lgan qarashlari, insoniy fazilatlari nazarda tutiladi. Rahbar qaysi sohada bo'lmasin, halol-haromning farqiga borsa, o'z vazifasini sidqidildan bajarsa, o'z manfaatidan ko'ra o'zgalar, ayniqsa, xalq manfaatlarini ustun qo'ysa, o'z vazifasiga vijdonan yondashib, astoydil ishlasa, o'sha soha gullab- yashnayveradi. Afsuski, ayrim rahbarlar bunday insoniy fazilatlardan yiroq. Nafaqat rahbarlar, balki, har bir shaxs har tomonlama komil, uzoqni ko'ra oladigan, boriga qanoat qiladigan bo'lsa, u korrupsiyadek jirkanch ishga also qo'l urmaydi.

Korrupsiyaning yana bir ildizi bu-fuqarolarimizning o'z haq-huquqlarini yaxshi bilmasliklaridir. Fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirishda yuridik sohaning ahamiyati katta, albatta. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi famonining imzolanishi bu borada ayni muddao bo'ldi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, korrupsiyani yo'q qilish uchun hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan tizimli ishlarga har bir fuqaro o'z hissasini qo'shishi joiz. Shundagina farzandlarimizning porloq kelajagi, mamlakatimizning rivoji, hayotimiz farovonligiga zamin hozirlagan bo'lamiz. Zero, kelajak bugundan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.lex.uz.
2. www.ziyo.uz.

YANGI YILDA YANGI MARRALAR

Jumanova Dildar Saparboyevna

Xorazm viloyati Urganch shahridagi
18-son maktabning huquq fani o'qituvchisi,

Sultonova Dilfuza Yusupovna

Xorazm viloyati Urganch shahridagi
18-son maktabning tarbiya fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtboshimizning 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasidagi ta'lim tizimi bo'yicha kelgusi yillarda amalga oshiriladigan islohotlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Murojaatnoma, ta'lim tizimi, imkoniyat, stipendiya, ijtimoiy himoya, davlat, ustama, mablag', jamg'arma.

Odam bolasi borki maqsadsiz, orzularsiz yashay olmaydi. Shuning uchun ham har birimiz yangi yilga qadam qo'yar ekanmiz, o'z oldimizga yangi marralar, yangi maqsadlar qo'yamiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev esa bizdan farqli o'laroq o'zbek xalqining baxtli yashashi uchun kengroq imkoniyatlar yaratishni hamda mamlakatimizni yanada rivojlantirishni o'z hayotining asosiy mazmuniga aylantirgan desak, also mubolag'a bo'lmaydi. Darhaqiqat, o'z manfaatidan ko'ra o'zgalar manfaatini ustun qo'yish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Bu ulkan jasorat, albatta. Ushbu so'zlarning qanchalar to'g'ri ekanligini yurtboshimizning 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan **Murojaatnomasidagi** nutqini tinglagan har bir O'zbekiston fuqarosi juda yaxshi anglaydi.

Aytib o'tish kerakki, Prezidentning Oliy Majlis timsolida butun xalqimizga qiladigan Murojaatnomasi muhim siyosiy voqelikka aylandi. Har yili Murojaatnomada davlat va jamiyat hayotining eng dolzarb masalalari ko'tariladi, muammolar ochiq tahlil va tanqid qilinadi. Bu safar ham xuddi shunday bo'ldi. Hech bir soha yurtboshimizning e'tiboridan chetda qolmadi.

Mamlakatimizning porloq kelajagi har tomonloma chuqur bilimga ega yoshlar qo'lidaligi bois Prezidentimiz Murojaatnomada ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratdi. Xususan, kelasi yillarda ta'lim tizimida quyidagi islohotlar amalga oshiriladi:

– Xususiyl oliygohlarga ham kerakli mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha **davlat buyurtmasi berish** tizimi yo'lga qo'yiladi;

– keyingi yildan oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida **25 foizga oshiriladi**;

– OTMlarga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar soni **2 barobarga ko'paytirilib, 2 mingtaga yetkaziladi**;

- a'lo baholarga o'qiyotgan, **ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar uchun maxsus stipendiyalar** joriy etiladi;
 - “El-yurt umidi” jamg'armasi orqali yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlarining magistratura va doktoranturasida o'qishga yuboriladigan yoshlar soni **5 barobarga** oshiriladi;
 - **30 ta yetakchi OTMga** o'quv dasturlarini ishlab chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi beriladi;
 - 240 mingdan ziyod maktab o'qituvchilariga sinf rahbarligi uchun ustama to'lovlar **1,5 baravarga** oshirilib, byudjetdan **400 mlrd so'm** qo'shimcha mablag' ajratiladi;
 - boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan o'qituvchilar oyligiga **50 foiz**, boshqa viloyatdagi olis tumanga borib ishlasa – **100 foiz ustama** haq to'lanadi;
 - Xalq ta'limi xodimlarini rag'batlantirish hududiy jamg'armalariga **330 mlrd so'm** yo'naltiriladi;
 - kelgusi yil maktabgacha ta'lim qamrovi **65 foizga**, 2023-yil oxirida esa **75 foizga** yetkaziladi. Bu ishlarga byudjetdan 600 milliard so'm subsidiya berish hisobidan qo'shimcha 2 mingta nodavlat bog'cha tashkil etilib, xususiy sektor ulushi 25 foizga yetkaziladi;
 - 2021-yili doktorantlar soni **4,5 mingtaga** yetkaziladi yoki 2017-yilga nisbatan 3 barobarga oshiriladi. Ushbu maqsadlar uchun byudjetdan qo'shimcha 240 milliard so'm ajratiladi;
 - 2021-yilda **fizika va chet tillarini o'rganish** ustuvor yo'nalish etib belgilandi.
- Ishonamizki, mazkur islohotlar kelgusida, albatta, o'zining ijobiy natijalarini beradi. Yurtboshimizning quyidagi so'zlari maqolamizga chiroyli yakun yasaydi: “Hayot oldimizga yana qancha sinov va muammolarni qo'yishi mumkin va biz har qanday holatga tayyor turishimiz zarur. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo'masin, demokratik islohotlar yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Oldinga, faqat oldinga qarab boramiz. **Va biz bunga har tomonlama qodirmiz. Chunki bugungi xalqimiz – kechagi xalq emas. Bugungi O'zbekiston ham – kechagi O'zbekiston emas**”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
2. WWW. ziyo.uz

**GLOBALLASHUV JARAYONIDAGI AXBOROT TAHDIDLARINING
YOSHLAR DUNYOQARASHIGA TA'SIRI**

Yusupova Gulmera

Navoiy viloyati Navbahor tumani 4-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Fizika fani o'qituvchisi

Mamlakatimizda yoshlarning rivojlangan davlatlar yoshlari kabi zamonaviy lim olishlariga, dunyo madaniyati va ma'naviyatining sarchashmalaridan bahramand bo'lishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, bugungi axborot tahdidlari avj olgan davrda yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi, ming yillar davomida yuksak qadriyatga aylangan, mehr-oqibat, ibo-hayo, kattaga hurmat-kichikka izzat kabi an'analarimizdan yoshlarni og'diruvchi ayrim noxush holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Hozirgi globallashuv davrida internet insonlararo muloqot va axborot almashishning eng optimal vositasi sifatida maydonga chiqdi. Bugungi kunda axborotning aksariyat qismi internet tarmog'i orqali dunyoga tarqalmoqda. Internetdagi axborotning hajmi juda katta bo'lib, xilma-xilligi tufayli yoshlarning ongiga salbiy ta'siri ko'rsatmoqda.

Globallashuv davrida axborotga bo'lgan talab yuqoriligi bois, inson o'ziga kerakli bo'lgan turli xil ma'lumotlarni olmoqda. Ayni paytda taraqqiyot jarayonida Internetda tarqatilayotgan axborotning xolis yoki haqqoniyligiga ishonish dolzarb masaladir. Misol uchun, Internetdagi ayrim xabarlar buzg'unchilik harakatlarini sodir etishga undaydi. Hozirgi vaqtda bunday axborot tarqatish usullaridan turli ekstremistik guruhlar, buzg'unchi tashkilotlar foydalanib kelayotgani butun dunyoni tashvishga solmoqda.

Darhaqiqat, internet XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biri, o'zaro ma'lumotlar almashish imkoniyatini beruvchi katta informatsion magistral hisoblanadi. Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda foydalanish mumkin. Bugungi kunda aksariyat yoshlar bo'sh vaqtlarini internet-klublarda o'tkazib, u yerdan rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Bu esa bir tomondan yoshlarning ta'lim olishi uchun keng imkonitlarni yaratsa, ikkinchi tomondan bu tizim orqali kirib kelayotgan milliy mafkuramizga yot bo'lgan g'oyalar ular ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mamlakatimiz aholisining aksariyat qismini yoshlar tashkil etar ekan, globallashuv, ya'ni axborot makonida turli tahdidlar mavjud bo'lgan hozirgi sharoitda yoshlar uchun sog'lom axborot muhitini yaratish lozimdir. Yoshlar ongiga bunyodkor g'oyalarni singdirmog'imiz shart. Aks holda ular ongida ma'naviy bo'shliq paydo bo'ladi uni shu zahoti buzg'unchi g'oyalar egallaydi. Internet tarmoqlarining yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sirini psixologik nuqtai nazardan qarasak, inson miyasi

tez shakllanuvchan va moslashuvchandir. Bunday sharoitda nazorat qobiqlariga shikast yetadi va odamiylik chegarasidan uzoqlashadi. Internetning ijobiy mo'jizalari ham bisyorki, u intellektual salohiyatimizni yanada yuksaltirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Hozirda kundan kunga ko'lami kengayib borayotgan internet tarmog'i insonlarning imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Keyingi yillarda yoshlar orasida ommalashib borayotgan sotsial tarmoqlardan foydalanish ko'lami kundan kunga ortib, yoshlarning kundalik mashg'ulotiga aylanib qolmoqda. Kuniga millionlab yoshlar Internetning bu xizmat turidan foydalanmoqda: ba'zilar do'st, ba'zilar mijoz, ba'zilar ish beruvchilarni va ishchilarni qidirsang, yana ba'zilar fbekordan vaqt o'tkazish uchun foydalanmoqda.

Bugungi kunda sotsial tarmoqlarning keyingi istiqbolli rivoji haqida har xil nuqtai nazarlar mavjud va bu rivojlanish sotsial tarmoqlarning qaysi auditoriyaga mo'ljallanishiga ham bog'liq bo'ladi. Shak shubhasiz, bu o'rinda yoshlar auditoriyasini keltirish mumkin. Sotsial aktiv kuch hisoblangan va doimo, har joyda innovatsiyalar yaratishga ishtiyoqi baland bo'lgan yoshlar sotsial tarmoqlarda dunyo, mintaq va mamlakat miqyosida yuz berayotgan yangiliklardan xabardor bo'lishmoqda, o'zlarini bilimlari va imkoniyatlarini reklama qilishmoqda, bilimli, iqtidorli tengdoshlari bilan tanishmoqda, o'zlarining hayotiga, kasbiga, ijodiga tegishli ko'pgina masalalarni tengdoshlari bilan birgalikda muhokama qilishmoqda va ularni to'g'ri yechimlarini topishmoqda. Bu quvonarli hol. Lekin tanganing ikkichi tomoni ham bordek, bu yerda ham anchagina muammoli salbiy holatlar mavjud. Ma'lumki, sotsial tarmoqlarda muloqat o'rnatish bo'yicha hech kanday cheklashlar, shartlar mavjud emas. Real muloqatda shunday gaplar mavjudki, ularni insoniylik nuqtai nazaridan aytib bo'lmaydi. Sotsial tarmoqlarda esa ularni yozma ravishda aytish mumkin. Sotsial tarmoqlar yoshlarni sotsiallashtirishning klassik institutlari bo'lmish – oila, maktab, do'stlar va tengdoshlarning real muloqat davrasi kabilarni chetga surib qo'ymoqda. Bu esa o'z navbatida yoshlarni shaxs bo'lib rivojlanishiga yomon ta'sir ko'rsatadi.

Internet yoshlarga oson axborot olish imkoniyatini yaratdi. Bu esa o'z navbatida har xil turli ma'lumotlarni bir paytda, ya'ni bir paytning o'zida “Youtube”da video ko'rish, musiqa eshitish, kim bilandir sotsial tarmoqlarning birida muloqat qilish, veb sahifalarni varaqlash kabilarni axborotlarning yoshlar miyasida aralashib ketishiga olib keladi. Ortiqcha har xil ovqat istemol qilish tanaga qanday salbiy ta'sir ko'rsatsa, bu ham yoshlar miyasiga shunday salbiy ta'sir ko'rsatadi. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra sotsial tarmoqlar ko'rinishidagi diqqatni tortadigan har xil omillar xotirani pasayishiga, idrok etish qobiliyatini susayishiga, tom ma'noda aqlsizlik kasalini kelib chiqishiga sabab bo'lar ekan. Bundan tashqari buyuk Britaniyalik olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, odamlar orasida real muloqatning yetarli bo'lmasligi ularning

immun tizimiga, gormonal balansini buzilishiga va arteriya qon tomirlari ishiga zarar yetkazar ekan.

Xulosa sifatida shuni aytish zarurki, bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini to'g'ri qabul qiladigan, buyuk kelajakka umid ko'zi bilan qaray oladigan, ichki va tashqi axborot tahdidlariga nisbatan kurashchanlik fazilatlarini yuksaltirib borish muhim ahamiyatga ega.

ОИЛАДА ЭКОЛОГИК МУАММОЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ТАРБИЯСИ

Бахриддинов Нуриддин Садриддинович

Наманган муҳандислик-қурилиш институти

Техника фанлари номзоди, доцент

Игамбердиева Дилфуза Алимовна

Наманган муҳандислик-қурилиш институти ўқитувчи

Аннотация: Ушбу мақолада экологик муаммоларни ҳал этишда оиладаги экологик тарбия муҳим ўринда туриши, ҳар бир экологик муаммолар юзага келиши сабаблари ва унинг оқибатлари ҳамда улар олдини олиш чора-тадбирлари келтирилган. Булардан ташқари оиладаги экологик тарбияни яхшилаш орқали чиқиндилардан самарали фойдаланиш ва бунинг натижасида экологик вазиятни барқарорлаштириш асослари баён этилган.

Калит сўзлар: экологик тарбия, экологик ҳалокат, экологик муаммо, маиший чиқинди, экологик маданият, чиқинди, чиқиндиларни саралаш, табиий ва антропоген омиллар, чиқиндиларни зарарсизлантириш.

ВОСПИТАНИЕ ИСКЛЮЧЕНИЙ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В СЕМЬЕ

Бахриддинов Нуриддин Садриддинович

Наманганский инженерно-строительный институт

Кандидат технических наук, доцент

Игамбердиева Дильфуза Алимовна

Наманганский инженерно-строительный институт учитель

Аннотация: В данной статье предтавлены экологическое воспитание в семье, играющее важную роль в решении экологических проблем, причины и последствия каждой экологической проблемы, а также меры по их предотвращению. Кроме того, описывается эффективное использование отходов путем совершенствования экологического воспитания в семье и, как следствие, основы стабилизации экологической ситуации.

Ключевые слова: экологическое воспитание, разрушение окружающей среды, экологическая проблема, бытовые отходы, экологическая культура, отходы, сортировка отходов, природные и антропогенные факторы, утилизация отхода.

EDUCATION TO OVERCOME ENVIRONMENTAL PROBLEMS IN THE FAMILY

Bahriddinov Nuriddin Sadriddinovich

Namangan Institute of Civil Engineering
Candidate of Technical Sciences, Associate Professor

Igamberdiyeva Dilfuza Alimovna

Namangan Institute of Civil Engineering teacher

Annotation: This article presents environmental education in the family, which plays an important role in solving environmental problems, the causes and consequences of each environmental problem, as well as measures to prevent them. In addition, it describes the effective use of waste by improving environmental education in the family and, as a result, the basis for stabilizing the environmental situation.

Keywords: environmental education, environmental destruction, environmental problem, household waste, environmental culture, waste, waste sorting, natural and anthropogenic factors, waste disposal

Ер Сайёрасидаги тирик мавжудотларнинг бўлиши деганда макро ва микроорганизмлар тушуниб, бунинг меъерий ҳолати атроф-муҳитга бўладиган таъсирларга боғлиқ ҳолда бўлади. Бу ўринда атроф-муҳитга бўладиган таъсирларнинг табиий ва антропоген, яъни инсон омилига боғлиқ омиллар эканлигини билиш лозим. Чунки, табиат билан инсон ўртасидаги ўзаро муносабатлар маълум қонунларга бўйсунган ҳолда боради. Инсон омили яшаши учун унинг яшаш муҳитига кўрсатадиган таъсири билан бирга боради. Яъни, инсон ўз эҳтиёжи учун зарурий моддаларни табиатдан олади, бунинг учун табиатга нисбатан қандайдир таъсир кузатилади. Масалан, инсон эҳтиёжи учун озиқ-овқатни – табиатнинг тупроқ ва сув қисмига таъсир этиш орқали, қолаверса, турли даражада қондирилишини тақозо этадиган эҳтиёжлар учун табиатнинг қандайдир қазилма бойликларига нисбатан таъсир этиш орқали амалга оширилади. Жамият ривожланиши жадал суръатларда бўлишига мос ҳолда инсон фаолияти таъсирида биосферанинг ўзгариши жуда тезлик билан бормоқда. Биосферанинг ўзгаришидаги меъерий ҳолатдан чиқилиши эртамикечми экологик ҳалокатга олиб келади. Экологик ҳалокат экологик муаммоларнинг юзага келтирадиган – Ердаги ҳароратнинг меъерга нисбатан ортиб кетиши, музликларнинг эриши тезлашиши, бўрон-довуллар бўлиши каби инсон ва барча мавжудотлар яшаш муҳитининг бузилиши тушунилади. Мустақил республикаимиздаги экологик муаммолар умумижтимоий

масалаларнинг ажралмас қисми ҳисобланиб, кенг жамоатчилик олдидаги ҳал этилиши зарур бўлган вазифалардан биридир. Бу борада экологик таълим-тарбия тизими муҳим ўрин тутди. Экологик таълим ва тарбия инсоннинг табиатга, биосферага бўлган янгича муносабатларини шакллантиришда муҳим босқич ҳисобланади. Бу, ўз навбатида, мустақил республикаимизда юксак экологик маданиятли, ўз Ватанига, элига хизмат қиладиган инсоннинг шаклланишига асос бўлиб хизмат қилиши мумкин. Бунга ишонч ҳосил қилиш учун Инсон Ер куррасининг қиёфасини ўзгартиришда катта геологик куч сифатида вужудга келганини биринчи бўлиб В.И.Вернадский томонидан таъкидлаб ўтилишини эсга олиш кифоя қилади. Инсон томонидан табиий ландшафтларнинг бузилиши, ўрмонларнинг камайтирилиши, сувлардан нооқилона фойдаланилиши, турли қазилма бойликларнинг кўплаб қазиб олиниши, завод-фабрикалар ва транспорт воситаларининг шиддат билан ривожланиши, қолаверса, атом энергиясидан фойдаланишларнинг кенг маънода йўлга қўйилиши натижаси ҳозирги глобал экологик муаммоларнинг юзага келишига сабаб бўлмоқда. Айнан ана шу каби салбий ҳолатларга барҳам беришда инсоннинг ёшлигиданоқ экологик онгини шакллантиришга алоҳида аҳамият бермоқ лозим. Ҳар қандай инсон болалигидан ўз оиласидаги тарбия асосида шаклланади. Шундай экан, XX аср ўрталаридан сезилган экологик масалага эътибор бериш йўналишидаги тарбия ҳам дастлаб оиладан бошланиши лозим эди. Шунинг учун ҳам экологик вазиятни барқарорлаштириш, ёки бунинг туб маъноси – экологик муаммолар юзага келишининг олдини олиш тушунчалари оиладан бошланади десак муболаға бўлмайди. Экологик тарбиянинг бошланиши маиший чиқиндилар юзага келишининг асосий сабаблари, улардан фойдаланиш имкониятларининг мавжудлиги, чиқиндиларни камайтириш усуллари, уларни зарарсизлантириш ёки утиллаштириш усуллари каби тушунчаларни боланинг ёшлигидан оилада тушунтирилиши улғайганидан кейин ҳам унга амал қилишида муҳим босқич ҳисобланади. Хўш, маиший чиқиндиларнинг қайси тарафдан тушунтирилиши мақбул бўлади? Аввало, чиқинди сўзининг маъносини оиладаги хўжалик ишлари – озиқ-овқат тайёрлаш, кир ювиш, ҳовлини тозалаш каби турларида ҳосил бўлган чиқиндилар гўёки кераксиз эканлигини, сўнгра, сабзаёт чиқиндилари ҳайвонга озуқа бўлиши мумкинлиги, турли ичимликлардан бўшаган идишлар саноатда қайта ишланиши мумкинлиги каби оддий ва кўзга кўриниб турган томондан тушунтириш бола онгида чиқиндилардан ҳам фойдаланса бўлиш мумкинлиги тўғрисидаги тушунчани пайдо қилади.

Чиқиндиларни яна саноатга мос турлари мавжудлиги, уларга эътибор бермаслик бутун бир табиатга катта таъсир кўрсатиши мумкинлиги, чиқиндиларнинг зарарли оқибатларига қарши уларни ўз вақтида

утиллаштиришга чет элларда юксак даражада эътибор берилиши, чиқиндиларни имкони борица иккиламчи хомашё сифатида ишлатилиши кабилар тушунтирилиши билан ҳақиқатан ҳам табиий хомашё базамизни тежашга имкон бериши кўрсатиб ўтилиши бола онгида чиқиндиларни саралаш заруратини туғдиришига имкон яратади. Бу ўринда мамлакатимизда чиқиндиларга катта эътибор бериб келинаётгани муҳим ўрин эгаллайди. Масалан, 2019-2028 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида қаттиқ маиший чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга ошириш Стратегияси 1-БОБ Умумий қоидаларнинг 3-бандида Стратегия Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, "Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида" ва "Чиқиндилар тўғрисида"ги қонунларга асосланади. Бунга кўра Республикамиз ҳудудида чиқиндиларни тўплаш ва зарарсизлантириш чора ҳамда тадбирлари белгиланган тартибда амалга оширилади. Экологик тарбияда ҳар бир чиқиндининг инсон организмга салбий таъсирини англатувчи тавсифи тушунтирилиши билан бола онгида чиқиндиларни ўз вақтида утиллаштириш зарурлиги тўғрисида тушунча юзага келади. Маиший чиқиндиларнинг қаттиқ ва суюқ, токсик, тупроқдаги микроорганизмга салбий таъсир этувчи, буғланиб таъсир этувчи каби турларини, қолаверса, оксил тоифасидаги чиқиндиларнинг ҳаттоки эпидемияга олиб келишини тушунтирилиши билан боланинг онгида ҳаттоки экологияга эътибор берилмаса яшаш муҳитининг издан чиқиши мумкинлигига ишонч ҳосил қилади. Бу билан бола тарбиясида биология, зоология, тиббиёт каби фанлар тушунчалари ҳам шакллана боришига эришилади. Экологик тангликларнинг, ҳалокатларнинг олдини олишда, жамият ва табиат ўртасидаги экологик зиддиятларни ечишда экология фанининг кейинги ютуқларини амалиётда қўллаш катта аҳамиятга эга. Ҳозирги даврда экология фани олдида турган амалий вазифалар куйидагилардан иборат: 1. Илмий асосланган соғлом муҳитда ҳозирги ва келажак авлодлар соғлигини таъминлаш; 2. Табиий бойликлардан оқилона фойдаланиш билан бир қаторда чиқиндисиз технологияларни ишлаб чиқиш; 3. Қишлоқ хўжалиги экосистемаларининг доимий ва юқори даражада ҳосилдорлигига эришиш орқали мамлакатимизда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш; 4. Аҳолига экологик таълим ва тарбия бериш йўли билан табиат муҳофазасини амалга ошириш. Бунинг оиладан бошланиши юқоридагиларга эришишни енгиллаштиради. Ҳар бир инсон мукаммал экологик билимга эга бўлгандагина табиат муҳофазаси бир давлат, миллатнинг иши эмас, балки халқаро муаммо эканлигини тушуниши мумкин. Табиатни муҳофаза қилиш муаммолари билан турли ёшдаги инсонлар шуғулланиши мумкин. Бу ишнинг асосий мақсади дунёда юз бераётган экологик муаммоларни илмий асосда ўрганиш ҳамда ижобий ҳал этиш бўлиб ҳисобланади. Шулардан келиб чиққан ҳолда хулоса

қилиб айтиш мумкинки, матбуот, турли алоқа воситалари орқали экологик муаммолар ва уларнинг оқибатлари, бундаги қўрилган иқтисодий ва ижтимоий зарарлар, бундай муаммоларнинг келиб чиқишининг асосий сабаблари каби тушунчаларнинг аҳоли ўртасида тарқатитиш орқали оилада экологик тарбиянинг самарадорлигига эришиш янада мукаммал бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Тўхтаев А. С. Экология. Педагогика институтларининг талабалари учун ўқув қўлланма. Т., «Ўқитувчи», 1998. — 192 б.
2. Биология ва экология журнали. Тошкент, 2020 й., 1-сон, 2-жилд, 14-19-бб

ЎҚИТИШДА ҚАДРИЯТЛАР УСТУВОРЛИГИНИНГ МОҲИЯТИ

Дониёров Тоғаймурод Асадович

Ангрен шаҳар, 6-ўрта мактабнинг бошланғич синф ўқитувчиси

Донияров Ботир Артиқович

“Антик Дунё” (Antique World) Халқаро илмий академиясининг доктори

Ангрен шаҳар, Маданият бўлими

Номоддий маданий мерос бўйича мутахасис, ўқитувчи

Қадрият – бу инсон ёки жамиятнинг у ёки бу эҳтиёжини қондирадиган ва улар манфаатига хизмат қиладиган моддий ва маънавий эҳтиёж ва манфаатлардир.

Қадрият ҳақидаги таърифдан келиб чиққан ҳолда “маънавий қадриятлар” тушунчасини қуйидагича тавсифлаш мумкин.

Маънавий қадриятлар – бу фалсафий ва ижтимоий тушунчалар бўлиб, жамият маънавий ҳаётидаги ходисаларнинг сифатий хоссаларини белгилаб, муайян тартибга тушурилган билимлар шаклида ўзини намоён қилади ва ижтимоий ишлаб чиқариш асосида инсонни ўраб олган атроф-муҳитни амалий жиҳатдан ўзлаштириш натижасида вужудга келади.

Қадриятларга ахлоқий-этик ходисалар сифатида ёндашиш у ёки бу даражада барча адабиётларда мавжуд. Бироқ айрим муаллифлар қадриятлардаги ушбу белгиларни мутлақлаштиришга мойилдирлар. Масалан, А.И. Кравченко қадриятларга қуйидагича таъриф беради: “Қадриятлар, – деб ёзади у, – кўпчилик кишилар томонидан ижтимоий қўллаб-қувватланадиган эзгулик, адолат, ватанпарварлик, романтик севги, дўстлик каби ходисалар ҳақидаги тасаввурлардир”(1).

Биринчидан, олимнинг қадриятларни хатто улар барча кишилар учун «эталон, идеал бўлиб хизмат қилса»- да, тасаввурлар тарзида талқин қилиниши эътироз уйғотади.

Агар қадриятлар субъектив тасаввурлардан иборат бўлса, ноосферада ёки моддий маданият соҳасида яратилган бойликлар (Эйфель минораси, Тожмахал мақбараси, Византия архитектураси, Самарқанддаги мадрасаю миноралар ва бошқалар) ахлоқий ҳуқуқий, диний нормалар, урф-одатлар қадриятларга кирмайдими?

Иккинчидан, субъектив тасаввурларнинг барча кишилар учун бир хил андоза, идеалда эталонда бўлишини фақат ҳаёлдагина тасавур қилиш мумкин. Ҳатто бир онадан кетма-кет туғилган ва бир шароитда ўсган ягона оилавий ва тарбиявий муҳитда шаклланган ака-укалар ҳам ён-атрофни, дунёни, шу жумладан қадриятларни ҳам бир хил тасаввур қилмайдилар.

Ўзбекистонлик олимлар ҳам қадриятларни ижтимоий-тарихий ва маданий категория сифатида қараб, уларга “инсон ва инсоният учун аҳамиятли бўлган барча нарсалардир”- деб таъриф берадилар(2).

Бундан ташқари, луғатда 2 жумла ўтгач, қадриятлар “моддий ва маънавий бойликлар оламининг гултожи, сараси” деб таърифланади(3).

Ундай бўлса, барча моддий ва маънавий бойликлар эмас, балки уларнинг “сараси, гултожи” қадриятларга киради деган хулосага келамиз. Ўз-ўзидан маълум бўладики, инсон ва инсоният учун аҳамиятли барча нарсалар эмас, балки моддий ва маънавий бойликларнинг гултожи, сараси – қадриятлардир. Ушбу фикрларда ички зиддиятлар борлигини кўрмаслик мумкин эмас. Марказий Осиё мутафаккирларининг маънавий ва умумбашарий, ахлоқий қарашлари иерархиясини қуйидаги тарзда ифодалаш мумкин:

- минтақадаги ички тарихий-маданий анъаналар, изланишлар;
- ташқи тарихий-маданий ва халқаро алоқалар;
- диний тажрибалар, маънавий-руҳий изланишлардаги инсон зотиға хос антологик, филогенетик ва этногенетик хусусиятлар таъсирида юзага келган.

Ушбу омиллар мутафаккирларнинг маънавий меросига у ёки бу даражада шубҳасиз таъсир ўтказган. Демак инсониятнинг интернационаллашуви XX асрнинг кашфиёти эмас, у узоқ тарихий-маданий ривожланиш жараёнида шаклланган умуминсоний, маънавий қадриятлар асосида юзага келган.

Бу мураккаб ва кўп қиррали ижтимоийлашиш жараёни – бугунги кунда муҳим ижодий йўналганлик, ижтимоий-педагогик қадрият сифатида алоҳида эътиборни талаб қилади. Таълимдаги янги қадриятлар шахснинг “таълим ва мутахассислик йўналишларини” танлаб ва педагогик фаолиятида ижодий имкониятларини фаоллаштирувчи, “мен” концепцияси негизида ўзини қадрлаш муносабатида бўлиши билан ўқув-тарбиявий жараёнда ҳар томонлама ривожланган шахсни шакллантиришга қаратилган инновацион ўқитишни талаб этади, ва қуйидагилар:

- миллий ва умуминсоний қадриятларни педагоглар онгига сингдириш;
- шахс, жамият ва атроф-муҳитнинг муносабатларини уйғунлаштириш;
- муносабатларда қадриятлар, анъаналар асосида ўқитувчи ва ўқувчининг бир-бирини ҳурмат қилиши;
- ўқувчиларда эстетик бой дунёқарашни, юқори маънавийликни, маданиятлик ва ижодий фикрлашни шакллантириш;
- унинг тарих, халқ одатлари ва анъаналари билан Ўзбекистон халқлари маданиятини сақлаш ва бойитиш, таълимни миллий ривожланишнинг муҳим воситаси деб тан олиш, бошқа халқлар тарихи ва маданиятини ҳурмат қилиш билан узвийлигидан иборатдир;

- ижодий фикрлаш, башорат қила олиш, муқобил фикрлашга имкон берувчи шакл, метод ва воситалардан фойдаланиб, ижтимоий аҳамиятли қарорлар қабул қилишга ўрганиш.

Маънавий қадриятлар шахсни ахлоқий шаклантиришнинг асосий омили бўлиб, улар илмий-техникавий ва интеллектуал, маориф, таълим-тарбия, тиббий хизмат, миллий мерос, турли шаклларда намоён бўладиган маданият дурдоналари, тил, адабиёт, санъат, халқ хунармандчилиги махсулотлари, ноёб тарихий, маданий архитектура ва ҳоказо ҳисобланади.

Шунингдек, ўзбек халқининг миллий анъаналари, байрамлари, удум ва одатлари, Ўзбекистонда ўтган мутафаккирларнинг маънавий мероси, ёзма асарлар, ривоят ва афсоналар, муқаддас жойлар, тарихий ёдгорликлар, мусиқа ва қўшиқлари, чолғу асбоблари, ўйинлари, деҳқончилик ва хунармандчилик-бир сўз билан айтганда моддий ва **номоддий маданий меросимиз** маънавий қадриятларнинг асосини ташкил этади. Улар кишиларнинг бир-бирларига, ватанга, оиласига бўлган муносабатидаги ахлоқ хулқ-атворида, одоб ва ҳатти-ҳаракатида намоён бўлади. Шаҳсда ахлоқий шаклланганлик даражаси тўғрилиқ, яхши хулқлик, эркинлик-тенглик, биродарлик, инсонга бўлган ишонч, қадр-қиммат кабилар билан ўлчанади.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

- 1.Кравченко А.И. Социология. – М.: «Логос» Екатеринбург, Деловая книга 1999- С.168
- 2.Мустақиллик. Изохли илмий-оммабоп луғат.- Т.: Шарқ, 1998. – Б.280.
- 3.Мустақиллик. Изохли илмий-оммабоп луғат.- Т.: Шарқ, 1998. – Б.281.

YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYAT VA ONGNI SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK TARBIYASINING O'RNI

Turg'anbayeva Indira

Xorazm viloyat Gurlan tumani 24-maktabning
Huquq va tarbiya fan o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada yoshlardagi huquqiy madaniyat va ongni shakllantirish zarurligi, fuqarolik tarbiyasini rivojlantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: yoshlar, tarbiya, ong, qonun, huquq, shaxs, his-tuyg'u, mustaqil, konstitutsiya, fuqaro

Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga doimiy ta'sir etish imkonini beradi.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayoni hisoblanadi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirish fuqarolik tarbiyasini berishning ahamiyati bo'yicha, fuqarolik tarbiyasi va uning asoslari hamda huquqiy ta'lim o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiyhuquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayonini, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozimli haqida fikrlar bayon etilgan.

Huquqiy ong muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyalari fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida tilga olingan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga va jiplashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, huquqiy madaniyatini qaror toptirish – fuqarolik (huquqiy) jamiyatning eng asosiy talablaridan biri sanaladi.

Jamiyat tomonidan qonunchilik yo'li bilan belgilangan talablar fuqaro xulqini baholash, xatti-harakatlari mohiyatini tahlil qilish uchun mezon bo'lib xizmat qiladi. Ana shu talablarga muvofiq fuqaroning xulq-atvoridagi ayrim ko'rinishlar, harakatlar yoki odatlar to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining maqsadi erkin, demokratik, insonparvar huquqiy davlat va jamiyatni qurishdir. Bu jamiyatni bunyod etish jarayonida yangi ijtimoiy fuqarolik tarbiyasini tashkil etish vazifalarini yanada murakkablashtiradi. Zero, demokratik, huquqiy jamiyat barpo etilishining muvaffaqiyati fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy onglik darajasi, fuqarolik fazilatlarining qaror topganligi va ijtimoiy faollik ko'rsatkichlariga bog'liq.

Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalash va voyaga yetkazishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlardan biridir. Fuqarolik tarbiyasining markaziy ob'ekti bu- fuqaro sanaladi.

Fuqaro fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxsdir.

Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatib borish.
2. O'quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish.
3. O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.
4. O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.
5. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlarini bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.
6. Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish.

O'quvchilarning fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsga davlat Konstitutsiyasida ko'rsatilgan huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarish xususida ma'lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarni bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov R. Huquq va madaniyat Z.S.Zaripov tahriri ostida. – Toshkent, O’zbekiston, 1993. –56-bet.
2. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2-tomlik. – Toshkent, O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
3. ziyonet.uz

**МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ИЖОДИЙ
ФАОЛЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ФИКРЛАШ ВА ИДРОК
ЭТИШНИНГ ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИГИ**

Аллабердиева К.Х.

ТерДУ, Мактабгача таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси

Мактабгача ёшдаги болаларда фикрлаш ва идрок этиш ўзаро бир-бири билан боғлиқ. Бу эса, мазкур ёш даврида кўргазмали-образли фикрлаш кўпроқ хослигидан гувоҳ беради. Н.Л.Кряжева таъкидлаб ўтганидек, боладаги қизиқувчанлик атроф-муҳитни англаш ва оламнинг шахсий анланган манзарасини тасаввур қилишга йўналган. Ўйин орқали бола нарсаларнинг ўртасидаги сабаб-оқибат алоқадорлигини ўрнатишга интилади. У билимларга таяниши, айрим мураккаб вазифаларни бажаришга ҳаракат қилади, уриниб кўради, шу билан бирга у вазифани мия орқали ҳал этиши мумкин. Мактабгача ёшдаги бола реал вазиятларни тасаввур этади ва ҳаёлон у билан бирга "ҳаракатланади"²⁷.

И.Ю.Кулагина таъкидлаб ўтганидек, мактабда ўқишнинг бошлаган пайтда собиқ мактабгача таълим ташкилоти битирувчисининг фикрлаши эгоцентризм тавсифига эга бўлиб, аниқ муаммоли вазиятларга тўғри ечим топиш учун зарур билимларнинг мавжуд эмаслиги билан ажралиб туради. Бола ҳали мустақил равишда шахсий тажрибада объектнинг оғирлиги, узунлиги каби хусусиятлари ҳақидаги билимларни эгаллай олмайди²⁸.

В.С.Мухинанинг таъкидлашича, мактабгача катта ёшни мантиқий фикрлаш жадал шаклланидиган ва шу билан бирга, ақлий ривожланишнинг бевосита истиқболини белгиловчи давр сифатида кўриб чиқиш керак²⁹.

Мактабгача ёш даврида болаларнинг фикрлашида сезиларли ўзгаришлар юзага келади: уларнинг дунёқараши кенгаяди, фикрлаш операциялари такомиллашади, янги билим ва кўникмалар намоён бўлади, демак нутқ фаол ривожланади. Фақат фикрий ва тил кўникмалари атроф -муҳит билан мулоқот жараёнида эгалланади. Бола ўсиб-улғайган сари мулоқот таркиби мураккабланиши, бу эса, ўз навбатида мураккаб нутқ шакллари билан ўзлаштиришни талаб этади. Мактабгача катта ёшда билиш жараёнида кўплаб ўзгаришлар юзага келади. В.С.Мухинанинг фикрича, 6-7 ёшда идрок этиш аффеktivликдан эмоционаллик ва перцептивликка ўзгаради³⁰. Идрок

²⁷ Кряжева Н.Л. Развитие эмоционального мира детей. – Екатеринбург : У-Фактория, 2004. – 192 с. – С.21.

²⁸ Кулагина И.Ю. Возрастная психология. Развитие ребенка от рождения до 17 лет. – М.: Изд-во УРАО, 1997. – 176 с. – С.94.

²⁹ Мухина В.С. Детская психология. – М.: Апрель-Пресс :ЭКСМО-Пресс, 2000. – 352 с. – С.72.

³⁰ Мухина В.С. Детская психология. – М.: Апрель-Пресс :ЭКСМО-Пресс, 2000. – 352 с. – С.88.

этиш тахлилий, мақсадга йўналганлик ва онглилик касб этади. Унда эркин ҳаракатлар – излаш, текшириш, кузатиш намоён бўлади.

6-7 ёшда ихтиёрий диққатнинг ривожланишининг ўзи юқори аҳамиятга эга. Бу орқали режалаштирилган нутқий функцияни яхшилаш имконияти юзага келади. В.С.Мухинанинг фикрича, бу диққатни жамлашнинг универсал усулини ўзида акс эттиради. Нутқ туфайли объектларнинг аниқ вазифаларини оғзаки ифода қилиш, шунингдек, навбатдаги фаолиятга диққатни қаратиш имконияти юзага келади³¹.

Мактабгача таълим тизими учун болаларнинг билиш фаолияти муаммоси мазкур ёш даври учун жуда муҳимдир. Доимий равишда ўсиб борадиган билимлар ҳажмини оқилона ҳисобга олиш ўсиб келаётган авлоднинг таълим-тарбиясига янги талаблар қўяди. Энг аввало, когнитив, яъни билиш фаоллигини ривожлантириш вазифаси туради.

Мазкур ёшдаги болаларнинг фикрлаши ва ҳиссиётининг юқорилиги уларда биргаликда қайғуриш, кечаётган ҳодисаларга мансублик ҳиссини келтириб чиқаради³². Шу сабабли болаларда атроф-муҳит ҳодисалари ва одамларнинг ҳатти-ҳаракатларига қизиқишни илк болалик давридан уйғотиш ва уларга нисбатан ҳиссий-ижобий муносабатни шакллантириш талаб этилади.

Маълумки, бола шахси ўзаро ва биоижтимоий муносабатлар тизимида таркиб топади. Бу муносабатларни келтириб чиқарадиган асосий манба – боланинг ҳиссий билиш жараёни ва ўйин фаолиятидир. Демак, бола шахсига хос бўлган барча психологик ҳолат ва жараёнлар ижтимоий ҳаёт ҳамда атроф-муҳит таъсирида вужудга келади³³. Бола ўз фаолияти жараёнида ўзини ўраб турган табиий ва антропоген нарсалар ва ҳодисалар моҳиятини билиб олади.

Боланинг атроф-муҳитни ҳиссий билиш жараёни ўз моҳияти ва хусусияти жиҳатидан бир-биридан шартли фарқ қилувчи уч босқичдан иборат бўлади. Зеро, ҳиссий билиш боланинг сезгиларига бевосита таъсир этган ташқи атроф-муҳит (табиат) ва унинг алоҳида хоссаларининг кўринишлар, қиёфалар, тасвирлар, манзаралар шаклида миясида экс этишидир.

Бола ўзини ўраб турган атроф-муҳит ва табиатнинг муайян хоссаларини: ҳавонинг иссиқ-совуқлигини териси билан, суюқликларнинг таъмини тили билан, ҳаводаги ҳидни бурни билан, табиатдаги хилма-хил объектларнинг рангини кўзи билан, товушларни қулоғи билан сезиб, яъни мазкур хоссалар

³¹ Мухина В.С. Детская психология. – М.: Апрель-Пресс :ЭКСМО-Пресс, 2000. – 352 с. – С.37.

³² Сатир В. Психотерапия семи. – СПб; Москва; Хорьков; Питер, 2000. – 384 с.

³³ Ғозиев Э. Тафаккур психологияси (Дорилфунунлар талабалари учун ўқув қўлланма). – Т.: «Ўқитувчи», 1990. – 184 б.

боланинг беш турли сезгисига таъсир этиб, шу аъзоларда жойлашган асаб хужайралари орқали бош миясига бориб етиб, натижада мияда табиатнинг айрим хоссалари тўғрисида билим пайдо бўлади, уларнинг кўринишлари, қиёфалари, тасвирлари, манзаралари вужудга келади.

Фалсафий-психологик нуқтаи назардан бола билимининг манбаи сезгидир. Чунки бола атроф-муҳит ҳақидаги дастлабки билимларни ўз сезгиларидан олади. Боланинг атроф-муҳит ҳақидаги бошқа бирмунча мураккаб билимлари мана шу дастлабки бошланғич билимлари асосида вужудга келади. Демак, болани табиий ва антропоген муҳит билан боғловчи энг биринчи йўл ҳам атроф-муҳитдаги объектлар ва ҳодисаларни сезишдир.

Атроф-муҳитдаги объектлар ва ҳодисаларни идрок этиш сезишга нисбатан бирмунча мураккаб жараён. Идрокнинг сезишдан фарқи шундаки, унда атроф-муҳитдаги объектлар ёки ҳодисаларнинг айрим хоссалари эмас, балки объектлар ёки ҳодисалар бутун ҳолда акс этади. Бошқача ифодаласак, объектлар ёки ҳодисаларнинг яхлит манзараси, тасвири вужудга келади. Масалан, ёмғир, қор манзаралари ва ҳ.к.

Атроф-муҳитдаги объектлар ва ҳодисаларни ҳиссий билишнинг яна бир шакли тасаввурдир. Ташқи муҳит таъсири натижасида бош мия қобиғининг муайян қисмида пайдо бўлган кўзғалиш, яъни сезиш ва идрок маълум муддатгача ўз изини қолдиради. Демак, тасаввур атроф-муҳитдаги объектлар ва ҳодисаларнинг худди шу онда идрок қилинмайдиган, бироқ мияда қолган, кўз олдида келтирилган манзара, қиёфа-тасвирларнинг тикланиши ёки манзарали хотирадир.

Тасаввур билимларни сақлаш ва мустаҳкамлашга хизмат қилади, айни пайтда объектлар ва ҳодисаларнинг хусусиятларини билиб олишда, яъни умумлаштиришда ҳам муҳим ўрин тутаяди. Тасаввурдаги умумлаштириш хусусияти ақлий билишнинг, бошланғич экологик тушунчаларнинг ташкил топишига катта ёрдам беради.

Хусусий тасаввурлар атроф-муҳитдаги аниқ объектлар тасвири, манзарасидир. Бу тасаввурлар аниқ объектларни, масалан, айнан дарахтни, йўлни, кўприкни, сойни, ариқни, кўчани, маҳаллани акс эттиради. Хусусий тасаввурлар айни пайтда кўча ёки маҳалла худудининг табиати ва кишилар ҳаётини ҳам акс эттиради. Натижада бола онгида муайян худудларнинг ҳажмдор ёки ҳажмсиз, рангли ёки рангсиз, аниқ ёки ноаниқ шаклдаги манзаралари ҳосил бўлади ва бу жараён вақт ва тажрибага боғлиқ ҳолда тиниқлашиб боради.

Шундай қилиб, етти ёшгача тўпланган амалий тажриба, нутқ, хотира ва идрок этишнинг етарли даражаси болада ўз кучига ишончни оширади. Бола

унга эришиш хулқ-атворнинг иродавий хусусиятларига ижобий таъсир кўрсатувчи турли мураккабликдаги мақсадларни белгилашга қобилиятлидир.

Адабиётлар:

- 1.Кряжева Н.Л. Развитие эмоционального мира детей. – Екатеринбург : У-Фактория, 2004. – 192 с. – С.21.
- 2.Кулагина И.Ю. Возрастная психология. Развитие ребенка от рождения до 17 лет. – М.: Изд-во УРАО, 1997. – 176 с. – С.94.
- 3.Мухина В.С. Детская психология. – М.: Апрель-Пресс :ЭКСМО-Пресс, 2000. – 352 с. – С.72.
- 4.Ғозиев Э. Тафаккур психологияси (Дорилфунунлар талабалари учун ўқув қўлланма). – Т.: «Ўқитувчи», 1990. – 184 б.

ТУРИЗИМНИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ СТРАТЕГИК ТАРМОҒИГА АЙЛАНТИРИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ

Тўхтаев Сардор Илҳом ўғли

Термиз давлат университети магистранти

*Туризмни ривожлантириш, соҳага инвестициялар жалб этиш, кадрлар
салоҳиятини ошириш бўйича комплекс чоралар кўришимиз лозим.*

Шавкат Мирзиёев

Аннотация: мақолада туризмни иқтисодиётнинг стратегик тармоғига айлантириш, Ўзбекистонга келётган туристлар учун қулай шарт-шароит ва имкониятларни яратиш, туристик оқимларни кўпроқ жалб қилиш хусусида сўз юритилган.

Калит сўзлар: Туризм, стратегия, иқтисодий фаолият,

МЕРЫ ПО ПРЕВРАЩЕНИЮ ТУРИЗМА В СТРАТЕГИЧЕСКИЙ СЕКТОР ЭКОНОМИКИ

Аннотация: В статье говорится о превращении туризма в стратегический сектор экономики, создании благоприятных условий и возможностей для туристов, путешествующих в Узбекистан, привлечении большего количества туристов.

Ключевые слова: Туризм, стратегия, экономическая деятельность.

Мавзунинг долзарблиги: Туризмни иқтисодиётнинг стратегик тармоғига айлантириш биз учун устивор вазифа бўлиб қолади. Ҳукумат олдидаги энг муҳим вазифалардан бири-жорий йилда юртимизда келадиган туристлар сонини 7,5 миллионга етказишдан иборат. Маълумки, қатор нуфузли хорижий оммавий ахборат воситалари 2020 йилда Ўзбекистонни саёҳатига албатта бориш тавсия этилган мамлакатлар қаторига киритди. Биз бундай имкониятдан унумли фойдаланишимиз керак. Катта салоҳиятга эга бўлган зиёрат ва тиббиёт туризмини ҳам жадал ривожлантириш зарур.

Юртимизда 8 минг 200 дан зиёд маданий мерос объекти мавжуд бўлиб, туризм маршрутларига уларнинг атиги 500 таси киритилган. Ҳукумат уч ой муддатда зиёрат ва анъанавий туризмни ривожлантириш мумкин бўлган маршрутларига объектлар сонини 800 тага етказиш бўйича чора тадбирларни белгиласин. Яна бир вазифа-ЮНЕСКОнинг Умумжаҳон моддий маданий мероси ва Номоддий маданий мероси рўйхатига Ўзбекистондаги янги

объектларни киритишни тезлаштириш лозим. жорий йилда янги замонавий меҳмонхоналарни қуришга давлат бюджетидан 200 миллиард сўм субсидия ажратиб, туризм инфратузилмасини жадал ривожлантириш зарур³⁴.

Туризм кўп жиҳатдан иқтисодий формация ва категориядир. У туризм ташкилотчилари учун ҳам, туризм истеъмолчилари – туристлар учун ҳам кўп қиррали иқтисодий фаолият. Жаҳон ва миллий туризм ривожланишининг ҳар бир босқичи — барча иштирокчиларнинг фаолияти, ўзига хос характеристикаси ва кўрсаткичи билан характерланади. Ҳар бир туристик ҳудуд, ҳар бир мамлакат, ҳар бир шаҳар ва жой иқтисодий фойда ва даромад олиш учун мавжуд туристик ресурсларидан оқилона фойдаланишга ҳаракат қилади. Хоҳиш жуда зўр бўлса ҳам бунга эришиш осон эмас. Ҳар бир мамлакатда ўзининг сиёсий қарашлари, иқтисодиёти ривожланишининг йўналишлари, жамият анъаналарининг кўп қирралари мавжуд. Туристларни жалб қилиш учун ҳатто жуда қизиқарли бўлган объектлар ва ҳодисалар учун ҳам хизмат кўрсатишнинг мос даражасини, хавфсизликни таъминловчи туристик қизиқиш ва эҳтиёжни уйғунлаштириб қондирувчи туристик индустрия(саноат) ва инфратузилма зарур.

Туристлик оқимларни кўпроқ жалб қилиш учун - туристик ресурслар ва уларнинг потенциал имкониятлари, айниқса, туристик саноат объектлари батафсил ўрганилади ва баҳоланади.

Хориж туристларини қабул қилишга қодир бўлган маҳаллий аҳоли муаммосини ҳам унутмаслик керак. Бунда кўпчилик муаммолар маҳаллий норма (меъёр) лар билан хорижликларнинг ўзини тутиш одатлари бир-бирига мосланишидан келиб чиқади. Агар муҳитга мос келмайдиганлари бўлса, фарқи кўп бўлса, туризм амалга ошмаслиги мумкин. Масалан, Бирлашган Араб Амирликларига қарашли Шаржада туристларга қўйилган талаблар—ислом қоидалари таъсирида жуда қаттиқ бўлганлиги учун (бу туристик марказга туристик оқимлар миқдори камайган, баъзи даврларда эса умуман тўхтатилган. Яқин қўшни ҳудуд — Дубай бир вақтда ушбу талабларни юмшатган эди туристик оқим ушбу туристик марказга йўналишини ўзгартирди.

Хулоса ўрнида шунини таъкидлаш лозимки туристларни жалб қилиш иқтисодий, ижтимоий, маънавий жиҳатдан мамлакатимизнинг бойиб боришига имконият яратади. Улар учун замонавий турар жойлар туристик объектларни ташкил этиш чораларини кўриб борилиши лозимдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

³⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 24-Январдаги Олий Мажлисга Муроҷотномаси.

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. Тошкент-2019.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 24-Январдаги Олий Мажлисга Муроҷотномаси.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент. “Ўзбекистон” 2016 йил.
3. М.Т. Алиева Туристтик мамлакатлар иқтисодиёти. Т. Т.Д.И.У., 2007 йил.
4. М.Т. Алиева, Хўжаев Ў.Х., Норчаев. А.Н. Туризм ривожланишини прогнозлаш. ўққув қўлланма. — Т.: ТД ИУ, 2006.йил.

**“ILM-FAN VA TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI 8-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYASI
OILAVIY MULOQOTDA MUROJAAT SHAKLLARINING
SOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATI**

Г.Нурматова

Қарши давлат университети магистранти

Annotatsiya: Maqolada o'zbek oilaviy muloqotida murojaat shakllarining qo'llanilishi hamda sotsiopragmatik xususiyati yoritilgan. Shuningdek, oilaviy muloqotda er va xotin nutqida qo'llaniladigan murojaat shakllari badiiy asardan olingan misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oilaviy muloqot, murojaat shakllari, so'zlovchi va tinglovchi, sotsiopragmatika.

Аннотация: В статье освещено применение и социопрагматический характер форм обращения в узбекском семейном общении. Также были проанализированы формы обращения, используемые в речи супругов в семейном общении, на примерах из художественного произведения.

Ключевые слова: семейное общение, формы обращения, говорящий и слушающий, социопрагматика.

Annotation: The article highlights the application and sociopragmatic nature of forms of addressing in Uzbek family communication. It also analyzes the forms of addressing used in the speech of spouses in family communication on the base of examples from literary works.

Key words: family communication, forms of adress, speaker and listener, socsiopragmatics.

Murojaat shakllari so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida aloqani vujudga keltirish bilan bir qatorda, suhbatning qanday davom etishini, kommunikantlarning bir-biriga bo'lgan turli munosabatini, hurmati, yoshi, jinsi, shu bilan birga, o'zi yashagan yoki yashayotgan davr koloritini, milliy madaniyatini ham namoyon etadi.

So'zlovchi va tinglovchining jamiyatda qanday o'rin tutishi, yoshi, jinsi, lavozimi, kasb-kori, ya'ni sotsiumning ijtimoiy statusiga qarab murojaat shakllari tanlanadi va sotsial rollar o'zgarishi bilan murojaat birliklari ham o'zgarib boraveradi. “Murojaat birliklari kundalik hayotimizda nutq faoliyati, nutq jarayonida keng qo'llaniladigan, o'zaro aloqa-aralashuvga xizmat qiladigan, so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan, o'zida turlicha konnotativ ma'nolarni, semantik “ohanglarni” tashiydigan o'tkir ta'sirchan vositadir”³⁵.

³⁵ Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 122.

Sh.Iskandarova o'zbeklar muloqotida ishlatiladigan murojaat shakllarini bir nechta omil bilan belgilaydi³⁶. Bular:

- ijtimoiy mansublik;
- kasb-lavozim, unvon;
- suhbatdoshlarning tanish-notanishligi;
- nutqiy harakat sharoiti;
- muloqotchilarning yoshi;
- ularning jinsi;
- yashash joyi;
- uslubiy holat;
- muloqotchilar xarakteri.

Insonning yashash tarzi, sharoiti, jamiyatda tutgan o'rni va shu kabi masalalar ularning nutqiy faoliyatida ham aks etadi. Kommunikantlarning nutqi ularning jinsi, yoshi, mavqeyi va shu bilan birga toifasi orqali yuzaga chiqadi. Sotsial statuslar nutqda murojaat birliklarining qo'llanilishida ham muhim o'rin tutadi.

Oilaviy muloqot o'ziga xos bo'lib, unda murojaat birliklari ham o'ziga xos tarzda qo'llaniladi. Asosan qarindoshlik terminlari orqali murojaat qilish ko'zga tashlanadi. Tadqiqotchi M.Narziyeva qarindoshlik terminlarini ikki guruhga ajratadi: a) qon-qarindoshlik otlari: aka, amma, amaki, bobo, buvi, jiyan, nevara, ona, opa, ota, singil, tog'a, uka, xola, chevara, evara, o'g'il, qiz;

b) nikoh qarindoshligi otlari: boja, kelin, kuyov, ovsin, pochcha, xotin, er, yanga, qayin, quda, qayliq, o'gay³⁷.

O'zbek oilaviy muloqotida er va xotinning bir-biriga murojaati ham o'ziga xos. Ayollar turmush o'rtoqlariga nisbatan *dadasi*, *otasi*, *begim* kabi murojaat birliklarini qo'llaydilar. Erkakalar muloqotida esa *onasi*, *xotin* kabi birliklarni qo'llash bilan birga, ismini aytib murojaat qilish ko'zga tashlanadi.

1.*Oshiqib og'zini poylag'an Oftob oyimg'a qutidor bir iljayib qo'ydi-da:*

— **Xotin**, sen hali eshikdagi sovchilardan xabarsizdiansan? — dedi. (A.Qodiriy “O'tkan kunlar”)

2....*Indamadim. Ko'z o'ngimda yana o'sha qor bosgan hovli, chaqmoq telpakli kishi, muzlagan perronda sirg'anib-sirg'anib vagon ketidan yugurgan onam jonlandi. - Soh'rlikning sendan bo'lak kimi bor! – Oyim yengining uchini ko'ziga bosdi. - Jilla qursa sovuq diydorini ko'rib qol, bolam... - Avtobusda ketaman. - Bu gap xayolimga to'satdan keldi. Avtostansiya yaqin. Avtobuslar kechasi qatnaydi... - Ma'qul! - Dadam oyimga imo qildi. - Qani, bo'laqol, **Robiya!** Oyim sandiq ochdi. Tugun tugdi. Dadam qo'linga bir dasta pul tutqazdi. «Nima qilaman», desam bir*

³⁶ Iskandarova Sh. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 1993. –Б. 67.

³⁷ Нарзиева М.Ж. Ўзбек тилида шахсни ёш жиҳатидан тавсифловчи отларнинг маъно таркиби: Филол.фан. номз... дисс. – Самарқанд, 1992. –Б. 49.

og'iz, «kerak bo'p qoladi», deb qo'ya qoldi. Tugundagi narsa to'n bilan do'ppi ekanini bilib, yuragim ezildi. (O'.Hoshimov “Ikki eshik orasi”)

A.Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanida O'zbek oyimning Yusufbek xojiga nisbatan “er” deb murojaat qilishini ko'rishimiz mumkin.

Hoji boshda xotinining bu gapiga kuldi, undan keyin «turatur, o'g'ling kelsin», dedi. O'zbek oyimning bobillashi kuchayabergach: «Nima qilsang o'zing bil, basharti o'g'ling ko'nmasa men zo'rlamayman!» dedi. O'zbek oyim eriga yalinib boshladi:

*— Bir so'zlig'ingizni qo'ying, **er**, o'zi aslzoda, loaqal bir og'iz o'g'lingizga aytib o'tishka va'da bering-chi,— dedi.*

— Yaxshi. Va'da ham berayin, ammo san unashmay tur.

— Unashmayman, lekin o'g'lingizga unashdiq, deb eshitdirarmiz... Tuzikmi?

— Ma'qul. (A.Qodiriy “O'tkan kunlar”)

O'zbek muloqot madaniyatida er-xotin bir-biriga bosh farzand ismi bilan murojaat qilish holatlari ham kuzatiladi. Buni “O'tkan kunlar” romanida Qutidorning Oftob oyimga murojaat qilishida kuzatishimiz mumkin.

*Men senga aytib qo'yay, **Kumush**, — dedi turar ekan qutidor Oftob oyimg'a, — bu kunga bir mehmon aytkan edim. Cho'ringni chiqarib mehmonxonani tozalat. Anovi yangi qoplag'an ko'rpalarini ber, tanchaga o'shani yopsin. Katta gilamni ham chiqar, uyingda mevalaring bor edimi?*

— Bor.

— Bor bo'lsa yaxshi. Bir ozdan so'ng et olib kirguzarman, varaqi pishirib qo'yingiz.

Oftob oyim varaqi pishirishdan u kungi mehmonning uncha-muncha kishi bo'lmag'anlig'ini bildi.

— Qanaqa mehmon edi?

— Sen tanimassan, toshkandlik bir yigit, tag'in shu yerda-gi uch-to'rtta og'aynilar. Tuzikmi, aytkanlarimni uqdingmi?

— Uqdim-uqdim. (A.Qodiriy “O'tkan kunlar”)

Oilaviy muloqotda er-xotinning bir-biriga murojaatida bosh farzand ismi bilan murojaat qilish bugungi kunda ayrim hududlargagina xos. Murojaat birliklari o'ziga xos tarzda qo'llanilib, milliy mentalitetga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

ГУМОН ҚИЛИНУВЧИ ВА АЙБЛАНУВЧИ АЁЛЛАР ИШТИРОКИДА АЙРИМ ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Муродов Исроилжон Хуршиджон ўғли

Ўзбекистон Республикаси ИИБ

Академияси битирувчиси, мустақил илмий изланувчи

Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 60-бобида вояга етмаганларга нисбатан жиноят иши юритишнинг хусусиятлари белгилаб берилган бўлса-да, аёллар иштирокидаги тергов ҳаракатларини ўтказишнинг ўзига хос хусусиятлари қонун чиқарувчи томонидан кўриб чиқилмаган. Амалиётда жиноят ишини олиб боришда жинсий жихатга кам эътибор берилади. [1] Жиноят ишини тергов қилишда айбланувчи шахсиятининг психофизиологик хусусиятларини эътиборга олиш зарурлиги илмий адабиётларда кўрсатилган. [2,3,4,5] Шунинг учун, аёллар томонидан содир этилган жиноят ишлари бўйича тергов ҳаракатларини ўтказишнинг ўзига хос процессуал хусусиятларига эътибор қаратиш лозим бўлади.

Бизнинг ўрганган жиноят ишлари натижалари ҳамда терговчилар ва суриштирувчиларнинг билан ўтказган сўровларимиз кўрсатишича, кўпинча аёлларга нисбатан қўзғатилган жиноят ишларида сўроқ қилиш, юзлаштириш, кўздан кечириш, тинтув ва тергов эксперименти каби тергов ҳаракатлари ўтказилади. Ушбу тергов ҳаракатларини ўтказишда аёлнинг жинсий ўзига хос хусусияти аниқ намоён бўлади.

Шахснинг жинси каби асосий биологик-ижтимоий хусусиятлари паст баҳолаганлиги сабабли, эркакларга хос бўлган хулқ-атвор хусусиятлари (универсал деб қабул қилинган) аёллар томонидан содир этилган жиноят ишларини тергов қилиш сифатига салбий таъсир кўрсатади [6]. Сўроқ қилиш, кўздан кечириш, тинтув ва тергов эксперименти каби тергов ҳаракатларини самарали ўтказиш учун терговчи, суриштирувчи томонидан аёлларнинг шахсини чуқур ва ҳар томонлама ўрганиш талаб этилади [7], масалан, темперамент, характер хусусиятлари, хулқ-атворининг хусусиятлари ва одатлари каби жинсга оид хусусиятлар. Аёллар иштирокида тергов ҳаракатларини ўтказишнинг ўзига хос хусусиятларига эътибор қаратиш лозим.

Ўзбекистон Республикасининг амалдаги жиноят-процессуал кодексида холислар институти ва уларнинг кўплаб тергов ҳаракатларини ўтказишда мажбурий иштирок этиши назарда тутилган. Жиноят-процессуал кодексининг 352-моддаси 1-қисмига мувофиқ қуйидаги ҳолларда холисларнинг иштироки мажбурийдир: олиб қўйиш, кўздан кечириш, мурдани эксгумация қилиш, тергов эксперименти, тинтув, гувоҳлантириш, таниб олиш учун кўрсатиш,

кўрсатувларни ходиса содир бўлган жойда текшириш. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси нормаларида холисларнинг иштироки учун умумий қоидалар мавжуд бўлиб, улар қандай тергов ҳаракати ва кимга нисбатан амалга оширилишидан қатъий назар қўлланилади. Истисноли ҳолат сифатида қарама-қарши жинсдаги холислар иштирокида ечинтириб яланғочлаш билан боғлиқ тергов ҳаракатларини ўтказишга имкон бермайдиган қоида мавжуд. Амалиёт ходимлари ўртасида холисларнинг иштироки мажбурий бўлган тергов ҳаракатларини кўпинча уларнинг ҳақиқий иштирокисиз ўтказиш ҳам учраб туради. Ҳеч шубҳа йўқки, тергов ҳаракатини ўтказишда холис иштироки йўқлиги фактининг аниқланиши, уни ўтказиш натижасида олинган маълумотнинг далилий аҳамиятини йўқотади.

Амалиётдан кўриниб турибдики, тергов ҳаракатида иштирок этишга ёки баённомани имзолашга рози бўлган ҳар қандай шахс холис сифатида таклиф қилинади. Бунда ушбу тергов ҳаракати ўтказилаётган шахснинг хусусиятлари ҳисобга олинмайди. Шуни ҳисобга олиш керакки, аёл иштирокидаги тергов ҳаракатини ўтказиш нафақат унга, балки унинг қариндошларига ҳам таъсир қилиши мумкин. Аёл иштирокида унинг яшаш жойида тергов ҳаракатларини ўтказишда холис сифатида таклиф қилиниши мумкин бўлган шахслар билан аёлнинг муносабатларини ўрганиш керак. Агар аёлнинг фарзандлари бўлса, уларнинг заиф психикасини инобатга олиш, келажакда оналарининг хатти-ҳаракатлари ҳақида гапириб, болаларга руҳий шикаст етказмайдиган холисларни таклиф қилиш керак. Аёллар билан ёмон муносабатда бўлган шахсларни холислар сифатида таклиф этиш ноўрин[8], чунки терговчи ёки суриштирувчи томонидан аёлга нисбатан бундай муомала кейинчалик уларнинг муносабатларига таъсир қилади ва аёл билан психологик алоқани бузади.[9] Аёл ишонч билан қарайдиган, нохолислигига шубҳа қилмайдиган шахсни холис сифатида таклиф қилиш мантиқан тўғри бўлади. Шунинг учун аввалдан таниш бўлмаган шахсларни холис сифатида таклиф қилиш мақсадга мувофиқдир. Тергов ҳаракатига ва жиноятнинг тоифасига қараб, холис сифатида аёл кишини таклиф қилиш имконияти ҳақида ўйлаб кўриш керак. Бундай ҳолат аёлни шахсий ҳаёти, соғлиғи ҳолати тўғрисида маълумот олиш билан боғлиқ бўлган шахсий тинтув, тинтув ёки олиб қўйиш, яшаш хонадонини кўздан кечириш пайтида содир бўлиши керак. Тергов эксперименти ва кўрсатувларни текшириш пайтида иштирок этиш учун аёл кишини холис сифатида жалб қилиш мақсадга мувофиқ бўлади [10], чунки баъзи аёллар эркак кишининг иштирокида ўтказилган тергов ҳаракатларида чекланган ҳолатда ёки руҳий босим остида иштирок этиши мумкин.

Бизнинг фикримизча, тергов ҳаракатлари ва жиноят тоифасига қараб, аёл-холисларни таклиф қилиш имконияти масаласи ҳам ҳал қилиниши керак.

Холисларни тўғри танлаш, ўтказилган тергов ҳаракатлари сифатини таъминлайди. Ушбу қоида Ўзбекистон Республикаси Олий Суди Пленумининг қарорида акс эттирилиши керак.

Ходиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракати сифатида тергов қилинаётган жиноят тўғрисида маълумот олишнинг муҳим воситаси ҳисобланади. Кўп ҳолларда терговнинг муваффақияти унинг сифатига боғлиқ, чунки ходиса содир бўлган жойни кўздан кечириш пайтида олинган маълумотлар муҳим далилий характерга эга бўлади. Шу билан бирга, кўздан кечириш натижасида олинган фактик маълумотларни бошқа манбалардан олиш кўпинча мумкин эмас. Машҳур рус ҳуқуқшуноси В.Леонтиев 1887 йилда шундай ёзган эди: « Кўздан кечириш бутун терговнинг асосини ташкил этади ва уни пухта бажарилишининг чегараси йўқ.» [11]

Ходиса содир бўлган жойни кўздан кечириш натижаларига кўра, қилмишни содир этган шахс (лар) тўғрисида тахминий хулоса чиқариш мумкин. Ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечиришда топилган излар муҳим маълумотларни бериши мумкин. Жиноят аёл томонидан содир этилганлиги воқеа жойида топилган қуйидагилар билан тасдиқлаши мумкин: поябзал излари ва айниқса пошналар; аёллар ҳожатхонасида тушиб қолган баъзи нарсалар (парфюмерия, ойнача ва ҳ.к) ёки йўқолган нарсаларнинг (аёлларга оид буюмлар) мавжудлиги буни кўрсатиши мумкин. Қолдириб кетилган изларнинг табиатига қараб, содир этилган жиноят тўғрисида объектив маълумот олиш мумкин.

Аёллар томонидан содир этилган жиноятлар учун ходиса содир бўлган жойни кўздан кечириш мақсадларига илм-фан ва технологиянинг турли соҳалари бўйича мутахассисларни жалб қилмасдан эришиш қийин ёки имконсиздир [12]. Агар кўздан кечириш криминалистлар иштирокисиз ўтказилган бўлса, унда жиноятни фош этиш ва тергов қилиш учун муҳим бўлган излар ва бошқа нарсаларни топиш имконияти тўрт барабар камаяди [13]. Шунинг учун терговчи, суриштирувчи воқеа содир бўлган жойни кўздан кечиришда тегишли мутахассисларнинг иштирокини таъминлаши шарт. Биз таҳлил қилган аёллар томонидан содир этилган қотиллик жиноят ишлари материаллари шуни кўрсатадики, 63% ҳолларда терговчилар (суриштирувчилар) воқеа жойини марказдан - мурдадан кўздан кечиришни бошлаганлар. Шу билан бирга, агар қотиллик очик жойда аёл томонидан содир этилган бўлса, унда бу кўрсаткич 76,4% гача кўтарилади, агар хонада (агар мурда хонада бўлганда) бўлса, у ҳолда терговчилар (суриштирувчилар) аксарият ҳолларда ходиса содир бўлган жойни теваарак атрофни кўздан кечиришдан бошлайдилар, аввал полни, столларни кўриб чиқиш, хонадаги барча вазиятни тиклаш, сўнгра мурданинг ўзини кўздан кечирадилар. Шуни

таъкидлаш керакки, аёл томонидан содир этилган қотиллик ва соғлиққа шикаст этказиш ҳолатларида ходиса содир бўлган жойни ўрганишда, жиноят қуролларига алоҳида эътибор қаратиш лозим [14].

Аёл томонидан содир этилган қотиллик ёки соғлиққа шикаст етказиш ҳолатлари аниқланда, ошхона анжомларига (ошхона пичоқлари, озиқ-овқат махсулотларини чопиш анжомлари ва бошқалар) алоҳида эътибор берилиши керак. Маиший асосда аёл томонидан содир этилган қотилликларда бундай ашёлар 85% ҳолларда, шу билан бирга соғлиққа шикаст этказишда ишлатилганда - бу кўрсаткич 72% ни ташкил қилади [15].

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, аёллар томонидан содир этилган жиноятларни тергов қилиш жараёнида уларнинг ижтимоий ўзига хослигини ҳисобга олиб тергов ҳаракатларини ўтказиш олиб бориладиган ишнинг самарали бўлишига хисса қўшади ҳамда бу борада жиноят ишини олиб бораётган мансабдор шахснинг фаолиятига шикоят ва эътирозларнинг бўлмаслигига имкон беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ильин Е.П. Дифференциальная психофизиология мужчины и женщины. - СПб. «Питер», 2006. - С.154.
2. Зеланд Н.Л. Женская преступность. – СПб, 1889.- с 2
3. Серебрякова В.А. Социологические аспекты изучения женской преступности // Вопросы борьбы с преступностью. – М. 1982. - Вып. 36. - С. 23
4. Середа Е.В. Личность женщин, виновных в кражах личного имущества граждан и воспитательное воздействие на них // Личность преступника: методы изучения и проблемы воздействия. - М. 1988. - С. 95
5. Антонян Ю.М. Преступность среди женщин. - М. 1992. - С. 3-6; Свирин Ю.А. Биологический (генетический) фактор как одно из условий преступного поведения// Рос. юстиция. - М. 1996. - № 12. - С. 23.
6. Попова Т.В. Тактика отдельных следственных действий при расследовании преступлений, совершаемых женщинами. Дисс. ... канд. юрид. наук. - Москва, 2004.С.132.
7. Клещина Е.Н. Изучение личности обвиняемого следователем в целях оказания профилактического воздействия. Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. - М.,2003. –С.15.
8. Хитрова О.В. Развитие института понятых в УПК РФ // Адвокатская практика, 2005. -№ 3. - С. 39-41.
9. Хитрова О.В. Участие понятых в российском уголовном судопроизводстве.-М.:«Спарк», 1998. – С.37.

10. Сторожева А.Н. Понятой в российском уголовном судопроизводстве. Автореф. дисс.... канд. юрид. наук.- Красноярск, 2006. – С. 87.
11. Баянов А.И. Стратегия и практика структуре следственного действия // Криминалистические чтения посвященные 100-летию со дня рождения профессора Б.И. Шевченко: Тезисы выступлений. - М.: «МАКС-пресс», - 2004. - С.46-49.
12. Вологина Е.В. Методика расследования преступлений, совершенных женщинами. Дисс....канд. юрид. наук. - Волгоград, 2001. – С.122.
13. Рассейкин Д.П. Осмотр места происшествия и трупа при расследовании убийств. - Саратов: Приволжское книжное издательство, 1967.
14. Сахарова Е.Г. Расследование причинения вреда здоровью. Автореф. дисс... канд. юрид. наук. - Тюмень, 2005. - С. 39.
15. Public.sud.uz сайтига жойланган 100 дан ортиқ жиноят ишларини текшириш натижасида олинган маълумотлар.

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA FANLARARO BOG'LANISH

Rahimova Husnida

Chortoq tumani 9-son umumiy o'rta ta'lim maktabining
tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola tasviriy san'at fanining boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorligi va fanlararo bog'lanishi, integratsiya jarayonlari haqida.

Kalit so'zlar: integratsiya, fanlararo bog'lanish, ona tili, geografiya, izchillik, uzviylik

Jamiyatda faoliyat olib borayotgan har bir kasb vakili o'z sohasining inson hayotida eng asosiy vazifani bajarishini biladi va bunga ishonadi. Buni hech kim inkor etmaydi, albatta. Lekin shunday kasblar borki uning zalvorli yuki har qanday tarozining pallasini bosib ketadi. O'qituvchilik - shunday kasblardan biridir. Ustoz nomini olish va haqiqiy ustoz darajasiga yetish, ustozlarning ustasi bo'lish har bir pedagogning yuragiga tukkan niyati bo'lishi shart. Zero, kelajak ularning tabarruk qo'llarida ulg'ayadi. Go'zal kelajak uchun har bir ustoz-muallim ma'suldir.

Tasviriy san'at darslarida fanlararo bog'lanish dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, bo'sh vaqt orttiriladi va to'garaklarga jalb etiladi. Tasviriy san'atda da ona tili, o'qish, tabiat, darslarini integratsiyalash mumkin. Masalan, O'zbekiston mening Vatanim mavzusida rasm ishlash mavzusini o'tishi uchun mavzu tushuntiriladi, vatan haqida suhbat o'tkaziladi, she'rlar aytiladi va mavzu asosida rasm ham chiziladi. Bu esa bolani mavzuni yaxshi tushunib olishiga yordam beradi, kengroq va chuqurroq tushunishiga imkon ortadi, uzoq vaqt yodda saqlab qolishiga yordam beradi. Bu esa dars samaradorligini oshiradi. Masalan, “Kuz” mavzusi o'tilsa, avvalo mavzuga doir kuz rasmidan ko'rgazma sifatida foydalaniladi. O'quvchilardan kuz fasli va kuz fasliga doir ma'lumotlar, barglarning sarg'ayishi, hazonrezgilik haqida so'rash orqali rasmni tabiiy chiqishiga va bundan tashqari o'quvchilarning biologiya va geografiya fanlariga doir bilimlarini oshishiga ham erishish mumkin.

Fanlararo bog'lanish orqali dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

- har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.
- fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart.
- sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin.

Dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak. Mavzuni mazmunidan kelib chiqqan holda,

tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar, o'quv respublikamiz kelajagiga ishonch va e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Umuman olganda integratsiya darsi bir- biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

Olimlarimizning fikricha, integrasiya didaktik prinsiplar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o'rin egallaydi. Bunday tushuncha ta'lim tizimida integrasiya masalasini, fanlararo uzviylik va bog'liqlik masalasini yana bir bor ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Ta'lim sistemasiga integrasiyani kiritish maktab va jamoatchilik o'rtasida turgan ta'lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo'lishi mumkin. Integrasiyalashtirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini tabiatan anglab yetishga o'rgatadi. Shuni alohida hisobga olish kerakki, maktablardagi tasviriylar san'at darslarning integratsion bog'lanishlari ilmiy jihatdan kam ishlab chiqilgan. Mavjud turli fikrlar va qarashlar esa bir-biriga zid va uzviy bo'lmaganligi sababli integrasiya muammosi hamon olishlarimiz o'rtasida bahsli masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Integrasiya- bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir. Integrasiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori ko'rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayt etish kerakki, integrasiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integrasiya fanlararo bog'liqlikdir. Fanlararo bog'liqlik asoslari tabiatni to'la holda o'quv darsliklarda ko'rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgan.

Integrirlangan dars maqsadi yuqoridagilarda qamrab olingan jarayon nazorat qilinadi. Qo'yilgan fikrlarni shakllantirish o'quvchining talabiga, qiziqishi, intilishiga ko'ra rivojlantiriladi. O'qituvchilar va o'quvchilar orasida taqsimlangan vazifalarni hisobga olinganda integrirlangan darslar har xil shaklga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik didaktik asoslari (monografiya). - Toshkent: “Fan”, 2005, -130 bet.
2. Bikbaeva N.U. va boshq. Matematika 2. – Toshkent, “O'qituvchi”, 2007.- 208 bet.
3. Mahmudov T. Miniatyura falsafasi // Sino. - Toshkent, Eron Islom Respublikasining O'zbekistondagi Elchixonasi huzuridagi madaniyat vakolatxonasining nashri, 2002. - № 8. - B. 40

Ushbu konferensiya materiallari to’plami O‘zbekiston Prezidentining 2020 yil 2 mart kungi «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to’g’risida»gi Farmonida ko‘zda tutilgan vazifalarni ijrosini ta’minlash maqsadida “Academia Science” ilmiy tadqiqotlar markazining www.academiascience.org ilmiy jurnallar portali va “UzACADEMIA” ilmiy-uslubiy jurnali tahririyati tomonidan nashrga tayyorlandi va chop etildi.

Konferensiyaning maqsadi:

Professor-o‘qituvchilar, talaba-yoshlarni jamiyatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi rolini kuchaytirish, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va takomillashtirish, shuningdek yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va rag‘batlantirish kabi ustuvor vazifalarini amalga oshirish hamda mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish, yoshlarimizning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.

Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Eshmatov G‘ayratjon Ma’rupovich

Mas’ul kotib

Ravshanjon Abdullayev
Bag‘dod tumani 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi

Nashrga tayyorlovchi

Holiqov Muhridin Tavakkaljon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti

“Ilm-fan va ta’limda innovatsion yonadshuvlar, muammolar, taklif va yechimlar” mavzusidagi 8-sonli Respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi materiallari to’plami, 30-yanvar, 2021-yil. – Farg‘ona shahri: Academiascience, 2021. – 75 b.